

SALOHIDDIN AZIZBOYEV



AN' ANAVIY CHOLG'U
IJROCHILIGI



M⁴³

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Salohiddin Azizboyev



**AN'ANAVIY CHOLG'U
IJROCHILIGI**


(G'ijjak)



Konservatoriyaning I kurs talabalari uchun darslik

Ta'lim yo'nalishi: 5150700 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)

Fan nomi: An'anaviy cholg'u ijrochiligi (G'ijjak)



**TOSHKENT – 2019
“NAVRO'Z” NASHRIYOTI**

KBK 86.10(У36)
UO'K: 716.434
A 45

S.S.Azizboyev.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi (g'ijjak).

–T.: “Navro'z” nashriyoti, 2019. - 160 bet.

Ushbu darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasining 5150700 - “Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-kursda tahsil oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, shu yo'nalishning o'quv dasturi asosida tuzilgan. Unda g'ijjak ijrochiligining amaliy va nazariy jihatlarini yakka darslar mavzulari asosida yoritilgan.

Данный учебник предназначен для студентов 1-курса консерватории направления 5150700 – “An'anaviy cholg'ular” и создан на основе учебного плана данного направления. В нём рассматриваются теоретические и практические вопросы исполнительства на гитаре в процессе индивидуальных занятий.

This textbook is intended for students of the 1-course conservatory direction 5150700 - "an'anaviy cholg'ular" and is created on the basis of the curriculum of this direction. It examines theoretical and practical issues of performing on the guitar in the process of individual lessons.

Mas'ul muharrir: O.NAZAROV – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, professor.

Taqrizchilar: R.QOSIMOV – O'zDK professori,
SH.SHORAXMETOV – O'zDK dotsenti,
O'.RASULOV – O'zDSMI dotsenti.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil “9” fevraldagi “133” – sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-562-82-0

© S.S.Azizboyev
“Navro'z” nashriyoti, 2019

KIRISH

Musiq – inson ma'naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'kidlaganidek, “Inson bajarayotgan har bir ishiga g'uyoki birinchi marta bajarayotgandek yondoshishi kerak”. Shunday ekan, aynan ma'naviyati yuksak, teran fikrli insongina har bir ishiga kundalik yumushdek qo'l uchida emas, balki sidqidildan, mehr bilan yondoshadi. Qilayotgan ishi ertaga albatta hosil berishiga chin dildan ishonadi.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg'ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o'zining rang-barang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda. Milliy musiqa san'atimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganish, uni xalq ichida keng targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, o'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan cholg'ular va cholg'u musiqasi qadimdan boy va murakkab ta'sirchan imkoniyatlarga ega.

Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish kishilarning ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va ilm-fan to'g'risidagi tasavvurlarining nechog'lik ilmiyligi, shuningdek, to'g'ri nazariy va amaliy negizga qo'yilganligi bilan bog'langandir.

5150700 - Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) bakalavriat ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standartida belgilangan talablarga mos ravishda, o'quv rejasiga kiritilgan “An'anaviy cholg'ular” (ixtisoslik) fani uchun ko'rsatilgan soatlar hajmida, o'quv dasturi mavzulari, qolaversa, fanning uslubiyoti va didaktik talablari asosida yaratilgan ushbu darslik

mazmunida zamonaviy pedagogik qarashlar, asarlarni o'rganishning muhim jihatlari, musiqiy ta'lim jarayonida erishilgan samarali natijalar o'z ifodasini topgan.

Konservatoriyaga kirgan talaba musiqa va san'at litsey-kollejlarida musiqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, ansambl sinfi kabi fanlar bo'yicha saboq olib, bir qancha dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'ladi. Oliy ta'lim muassasasida an'anaviy cholg'u ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha yakka tarzda olib boriladigan darslar tizimga solingan bo'lib, aynan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan keng qamrovli nazariy hamda amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Fanning o'quv dasturida maqsad va vazifalar quyidagicha belgilangan: "An'anaviy cholg'u ijrochilik" (ixtisoslik) fani predmeti muayyan cholg'u (g'ijjak) hisoblanib, uning asosiy maqsadi talabaning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ijro mahoratini yuksaltirish, kasbiy bilim va tafakkurini yanada kengaytirish bilan birga uni pirovard natijada yakkanavoz ijrochi, ansambl sozandasi, shuningdek an'anaviy cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'qituvchi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori musiqa ijrochilik mahoratiga ega kadrlarni tayyorlashdir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talaba turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganligini namoyish etishidan iboratdir. Talaba mazkur fan orqali an'anaviy cholg'u ijrochilik qonun-qoidalarini o'rganib, nazariy jihatdan ham o'z mutaxassisligi bo'yicha talab darajasida ijrochilik sirlarini egallaydi. Tahsil jarayonida talaba pedagogik va ijrochilik tamoyillari, mumtoz kuy va ashulalar, doston va maqom yo'llari bilan birga, o'zbek bastakorlarining an'anaviy ijrochilar uchun yaratgan asarlarini bilishi lozim bo'ladi.

Mazkur darslik musiqiy ta'lim-tarbiya usullari, ijrochilik uslublari, rivojlanish tarixi kabi masalalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, talabalarning kasbiy rivojlanishi, sahna madaniyati, ma'naviy tomondan barkamol qilib tarbiyalash vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bo'lajak an'anaviy cholg'u ijrochilik ijrochilarini maxsus fanlar o'qitish kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarni

kengaytirish, kasblariga bo'lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, "ustoz-shogird" an'anasiga qo'yilgan talablarning bajarilishi, amaliy ijro, musiqiy nazariy bilimlar majmui hamda jo'rnavoz bilan birgalikda ishlash uslubiyotiga alohida ahamiyat berishni taqozo etadi. Shu bilan birga har tomonlama yetuk sozanda-ijrochi sifatida shakllanishida umumiy fanlar bo'yicha talabalarda bilim, malaka, ko'nikma hosil qilinishda interfaol ta'lim turlaridan foydalanish nazarda tutilgan. Talabalarga berilgan bilim va o'zlashtirilgan ko'nikmalar orqali yosh madaniyat xodimlarini fidoiy san'atkor qilib tarbiyalash, cholg'u ijrochilik san'atini xalq orasida targ'ibot qilish bilan kishilarda madaniy-axloqiy, madaniy-ijodiy va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishdan iborat.

Bizga ma'lumki, o'zbek musiqa ijrochiligi, boshqa sharq xalqlari musiqalari kabi o'ziga xos sayqallarga boy, dardli va tarovatli ohanglar tarannum etishga asoslangandir. Cholg'u sozini ijrochi qo'lida ushlash holatidan, toki mukammal ovozlari talqinigacha bo'lgan jarayonlar milliy an'anaviylik kasb etuvchi xususiyatlarga egadir. G'ijjak cholg'u ijrochiligining uslubga boyligi, turli yo'llarga egaligi ham shunda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu darslikda biz ustozlar ijro an'anasiga asoslanib, mavjud amaliy manbaalarga tayanib g'ijjak ijrochiligini o'zlashtirishning an'anaviy uslubini tavsiya etmoqdamiz. Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, o'zining ijodiy salohiyatini to'la namoyon etishi, milliy ijrochilik uslubini qo'llay bilish, kelajakda o'z cholg'usiga oid barcha ma'lumotlardan foydalangan holda o'quvchilarga saboq berish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Chunki, milliy dastur asosidagi uzluksiz ta'lim me'zonlarida an'anaviy saboq boshlang'ich jarayondan kiritilgani barchaga ayondir. Shu bois g'ijjak an'anaviy ijrochiligini o'zlashtirishimizda lozim bo'lgan holat, mashq va asarlarni an'anaviy misollarda tavsiya etiladi.

I-kurs talabasi o'quv jarayonida Shashmaqom va mumtoz merosimiz va turli davrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqiy asarlarni o'rganish bilan birga g'ijjak ijrochilik mahoratini egallab bormog'i kerak. Shuning uchun 1 va 2-semestrlar oraliq hamda yakuniy reyting attestatsiyalari uchun aniq ijrochilik dasturi ko'rsatiladi. Ma'lum bir asarni

chuqur o'rganish, shu janr va uslubda yaratilgan boshqacha asarlar bilan tanishib chiqishni ham nazarda tutadi.

I-kurs talabasi uchun o'quv rejasida mustaqil ta'lim uchun ham zaruriy soatlar ajratilgan. Uni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

- savollar va topshiriqlar bo'yicha mavzularni, janrlarni o'zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;

- ijrochilik san'ati rivojidadagi har bir davr yo'nalishlari va uslublarini aniqlash;

- olingan bilimlarni o'zining ijrochilik faoliyatiga tadbiiq etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

- talabaniq ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;

- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozish studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Talaba tasdiqlangan, ya'ni I-bosqich mobaynida belgilangan majburiy ijro dasturi hisoblangan asarlar bilan cheklanib qolmay, o'z dunyoqarashini muntazam kengaytirib borishi uchun boshqa vazifalarni ham bajarishi lozim. Reyting nazoratlari yoki kontsertda tinglovchi-tomoshabinlar oldida chalish uchun ma'lum bir bastakorlar tomonidan

yaratilgan asar ijrosini o'zlashtirayotgan davrda ushbu muallifning shu janrdagi boshqa asarlarini ham o'rganish kerak. Bunday mustaqil izlanish ustozlar uslubini chuqurroq singdirib olishga katta yordam beradi.

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet", "Ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, mazkur darslik an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari toifasiga kiradi. Unga Shashmaqom asarlari, shuningdek, bastakorlar asarlaridan ayrim namunalar g'ijjak uchun moslashtirilib, manbaa sifatida darslikka kiritildi.

Mazkur fan boshqa kasbiy fanlar bilan chambarchas bog'liq. O'quv rejada belgilangan "Ansaml sinfi", "An'anaviy cholg'u ijrochiligida o'qitish uslubiyoti", "Turdosh cholg'ularni o'rganish", "Ijrochilik san'ati tarixi", "Pedagogik amaliyoti", "Musiqqa adabiyoti" kabi fan mashg'ulotlarida talaba an'anaviy cholg'u ijrochilik (ixtisoslik) fanida o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ushbu kasbiy fanlarda uchraydigan amaliy ko'nikmalarni esa an'anaviy cholg'u ijrochilik ixtisosligi fani mashg'ulotlarida o'zlashtirishi mumkin.



I- BOB. 1-SEMESTR

1-DARS: An'anaviy cholg'u ijrochiligi tarixi. Ijro dasturini shakllantirish. Ijrochilik holati.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, bastakorlik va folklor shaklan va usluban bir-birini to'ldirib borgan. Ushbu musiqa merosimiz bugungi kunda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy cholg'u ijrochiligi xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'lik holda paydo bo'lib va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi.

Ko'pgina yozma manbaalarda aytilishicha uzoq yillar davomida, milliy cholg'ular rang-barang tarzda, turli shakl-shamolda mavjud bo'lib, musiqa saltanatida o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik san'ati bilan asrlar osha taraqqiy etib hozirgi zamongacha yetib kelgan. O'z o'rnida ijrochilikni davomiyligini ta'minlashda sozgarlar va sozandalarning bu boradagi izlanishlari muhim omillardan hisoblanadi.

Cholg'u ijrochiligining milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlarini musiqa san'atida hamisha qadrlanib kelgan va shu bois, ustozlar ijodiy merosi ham yosh avlod vakillari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ijrochilik sohasi nafaqat asl an'anaviy ko'rinishida, balki bastakorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib kelayotgan ijrochilikning umri boqiyiligini bir qancha oldinroq o'tgan ustozlar va keyingi avlod ijrochilari misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bunday ustozlar sirasiga Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuxamedov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Domla Halim Ibodov, Usta Olim Komilov, Mamadbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, To'xtasin Jalilov, Safo Mug'anniy, Xojixon Boltaev, Nurmuhammad Boltaev, Ma'murjon

Uzoqov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, G'anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muxtorjon Murtazoev, Doni Zokirov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliev, Rasulqori Mamadaliev, Nematjon Qo'labdullaev, To'rg'un Alimatov, G'ulomjon Hojiqulov kabi ko'plab bastakorlar, hofiz-u sozandalarni kiritish mumkin.

Cholg'u ijrochiligining milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlarini hamisha qadrlidir. Shunday ekan, o'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng jamoatchilik ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki, bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning bevosita "Ustoz va shogird" an'anasi orqali o'tishida tabarruk zotlar ko'priki vazifasini o'tash bilan birgalikda, o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar.

Musiqa madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an'analarga ega bo'lsada, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo'nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demak-ki, har qanday ijrochilik turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli cholg'u ijrochilik merosimiz qatori bir necha avlod ko'rkam ijrochilik an'analari ham madaniy-ma'naviy mulkimizga aylanishi tabiiy holdir.

1972 yil san'atshunoslik doktori F.Karomatlining tashabbusi bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasi (M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi)da "An'anaviy ijrochilik" hamda, "Musiqiy sharqshunoslik" kafedralarining ochilishi bilan an'anaviy ijrochilik peshqadam safga chiqib oldi. Milliy musiqa merosining an'anaviy ijrochilik sohasiga murojaat etar ekanmiz, hozirda serqirra, serjilo hamda sayqal topgan pallaga etib kelganligini inkor etib bo'lmaydi. Respublikamizda, qo'shni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli ko'rik-tanlov va festivallarda, kontsert va madaniy tadbirlarda ijro etilgan mumtoz merosimiz hisoblanmish maqomlarimizning ijrochilik

san'ati dunyo musiqa jamoatchiligi diqqatini yana qaytadan o'ziga jalb qildi.

Ustozdan shogirdga og'zaki tarzda meros bo'lib, o'tib kelgan an'anaviy musiqamizning bugungi kundagi nota, gramplastinka hamda magnit tasmlaridagi yozuvlari va jonli ijrosi yosh sozanda-yu xonandalarning yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishlarida o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Manbaalardan xabar berilishicha boshqa xalqlarda bo'lgani kabi Markaziy Osiyo xalqlarida ham cholg'u musiqa ijrochiligi azaldan xalqning to'y-u tomoshalarida, ko'ngil ochar bazm-u, xalq sayillarida, bayramlarida yakka va katta-kichik guruhlar ko'rinishida shakillandi. Keyinchalik esa hukmdorlar saroylarida maxsus jamoa ko'rinishida rivojlanib, turli davrlarga moslanib, takomillashib o'z tarraqiyot davrini o'tib bizning hozirgi kunimizgacha o'zining mukammal ko'rinishida yetib keldi. Shu o'rinda aytish kerak-ki, bir xalqda bo'lgan cholg'u sozi, ikkinchi xalqda ham mavjud bo'lib turlicha nom bilan yuritiladi. (*g'ijjak, kemancha va h.k.*) Cholg'ularning qiyofasi, ichki va tashqi ko'rinishlari, yasalishlari ham bir – biridan juda farq qilmasligi mumkin. Lekin, eng asosiy masala cholg'u qaysi millatga mansub bo'lmasin, avvalo mohir ijrochisi va uning ijrochilikdagi tutgan o'rni, darajoti muhim hisoblanadi. Cholg'u sozi juda ko'rkam, o'ta jimjimador bezaklar bilan bezatilgan bo'lsayu, ijrochilikda ifodasini topmasa oxir oqibat o'z-o'zidan iste'moldan chiqib boshlaydi.

Ko'plab ustozlar o'zlarining sa'yi harakatlari va ijrochilik borasida olib borgan izlanishlari bois, an'anaviy cholg'u ijrochiligida ham o'ziga xos bo'lgan mahalliy ijro uslublarni qaror topishiga o'z hissalarini safarbar etdilar.

Bulardan Farg'ona – Toshkent mahalliy uslubga xos ijrochilik maktabi namoyondalari: To'xtasin Jalilov, Mo'minjon Jabborov, Sobirjon Siddiqov, Mamataziz Niyozov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Xojiqulov, Yunusqori Yusupovlar Andijonda, Muhiddinxoji Najmiddinov, Usta Ro'zimatxon Isaboev, Karimjon Mansurov, Ziyovuddin Shamsiddinov Abdug'ofur Niyozaliev, Abduqahhor

Mansurovlar Namanganda, Muxtorjon Murtazayev, Rafiqjon Axmedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Umarovlar Farg'onada, Imomjon Ikromov, Ilxom To'rayev, Zokirjon Siddiqov, Yoqub buva, Akmalxon Sufixonov, Sunnat Samadov, G'ulomjon Mirzayev, Kommunar Komilov kabi san'atkorlar Toshkentda ijod qilganlar.

Samarqand-Buxoro ijrochilik maktabi namoyondalaridan esa Aminjon Ismatov, Samenjon Vohidov, Qodir Suxonov, Asliddin Nasriddinov, O'lmas Rasulov, G'anijon Xudoyev kabi ijrochilar, Xorazm maktabidan esa Allazar Hasanov, Yusuf Jabborov, Karim Iskandarov, Aziz Bekchanov, Iskandar Pirmatov, Shonazar Kuryazov, Jaloliddin Matyaqubov kabi ustozlar va ularning davomchilarini keltirib o'tish mumkin.

An'anaviy ijrochilikda aynan o'ziga xosliklarni yoritish, nazariy va amaliy asoslarini kengroq musiqiy ta'lim jarayoniga tadbiiq etish dalzarb ahamiyatni kasb etadi. Milliy musiqa ijrochiligining barcha jabhalari yuzasidan yuksak amaliy ko'nikmalar mavjud. Bu borada ijod qilgan hassos ustozlarimizning o'z ijro uslublari, fikr mulohazalari, tahliliy qarashlari hozirgi kun talablariga to'liq xizmat kilmoqda. Ustozlar ijro uslublarni yosh kamonchi ijrochilarimizning kamol topishida ijobiy ta'sirini amaliyotda kuzatish mumkin. Maqomlar mushkilot va nasr bo'limlari, xalq ijodiyoti, bastakorlik yo'nalishidagi asarlarni yod olishlikida birlamchi vosita "xirgoyi" ekanligini yana bir bor e'tirof etish lozim bo'ladi. Chunki, talaba sozini qo'liga olishidan oldin ijro dasturini ya'ni, asarlarini ohangini o'z "xirgoyi"si orqali kuylab olishi dasturni o'zlashtirilishida muhim omil hisoblanadi. An'anaviy ijroning akademik ijrochilikdan farqi ham shunda. O'zlashtirilajak asar "xirgoyi"da o'z ifodasini topsa, keyingi kuy bo'laklarini o'rganish va yod olish birmuncha yengil kechishi tabiiy hol.

Ma'lumki, Shashmaqom cholg'u va nasr yo'lidagi na'munalarni o'ziga xos ijro talqini mavjud bo'lib, Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas va Saqillarni ijro etishda o'ziga mos nola – qochirimlarlarni o'z ijrosida hosil etish maqom ijrochiligining asoslaridan hisoblanadi. Keragidan ortiq nolalar kuy mazmuniga g'alizliklarni keltirishi mumkin. Shu bois

talabalar bilan ishlashda ijrodagi musiqiy bezaklarni ishlatilishiga jiddiy e'tibor bilan yondoshish talab etiladi. An'anaviy g'ijjak ijrochiligida yana bir muhim vazifa bor. U ham bo'lsa ijro jarayonida ochiq torlarni kamroq qo'llashlik. G'ijjak sozi torlarining ochiq *mi, lya, re sol* tovushlarini ishlatmasdan ushbu tovushlarni yopiq pardalarda qulay barmoqlar bilan olishni o'zlashtirish ohang ravonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi bosqich talabasi bilan o'tkaziladigan ixtisoslik bo'yicha dastlabki darsda yosh kamonchining ijro natijasidan uning Oliy ta'limgacha bo'lgan o'rta ta'lim muassasasida olgan bilimlari va ijro ko'nikmalari aniqlab olinadi. O'z o'rnida o'qituvchi tomonidan talabning dunyoqarashi, ijrochilik mahorati, qobiliyati, imkoniyatlari sarhisob qilib olinishi lozim bo'ladi. O'z o'rnida bu jarayon talabning to'liq kurs uchun shakllantirilishi kerak bo'lgan ijro dasturiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Ijro dasturini shakllantirish.

Ijro dasturi mavjud fan dasturi, o'quv rejasidagi va kafedradagi talablar asosida shuningdek, talabning hohish istagi, qobiliyati va ijro ko'nikmalarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasida 5150700 – Cholg'u ijrochiligi (An'anaviy cholg'u ijrochilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishida ta'lim dasturlarini amalga oshirish muayyan tizimga solingan bo'lib, ushbu fan bo'yicha amaliy (yakka) mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – yakka mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (mashg'ulotlar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi. Amaliy (yakka) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (ustozlar ijro musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (mashqlar)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalari turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

Birinchi bosqich talabasining musiqiy tafakkurining rivojlanib borishini ijrochilik amaliyotlarining hozirgi ta'lim yo'nalishidagi islohatlarni samarali tashkil etilganligidan kuzatish mumkin. Talabalar o'qish jarayonida ixtisoslik sinfida olgan bilim va ko'nikmalarini, sinov-imtihonlarda, akademik kontsertlarda, sinf kontsertlarida, "Nazm va navo" va bastakorlar ijodiga bag'ishlangan kechalari, bayram kontsertlari, hamda Respublika va xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari, ularning ijrochilik mahoratlarini yanada oshirishda yordam beradi.

Talabning birinchi va ikkinchi semestrlar oralig'ida o'rganishi lozim bo'lgan shashmaqomning mushkilot va nasr bo'limi asarlari, bastakorlar ijodi, sharq xalqlari ijodi namunalari har bir talaba uchun alohida (individual) tanlab olinib, ijro dasturi shakllantirib olinadi.

Ushbu darslikda yoritilgan musiqiy janrlar fanning tasdiqlangan o'quv dasturi bo'yicha tanlangan. Qolaversa, O'zbekiston davlat konservatoriyasining "An'anaviy cholg'u ijrochilik" kafedrasidan ancha yillar davomida shakllantirilgan, bosqichma-bosqich belgilangan tartibdagi xususiy talablar majmuasi ham mavjud. 1-bosqich talabalari boshqa ustozlar sinfida ham shu asarlarini o'rganishlari mumkin. Tanlangan asarlar murakkablik darajasi bo'yicha ham oliy ta'lim talablariga va har bir talabning ijro imkoniyatlariga mos kelishi talab etiladi. Darslikda nota matni berilgan asarlar faqat namunaviy dastur sifatida taqdim etilgan. "G'ijjak" ixtisosligining birinchi bosqich ta'lim jarayonlari mobaynida ijrochilik mahoratini yangi bosqichda o'zlashtirish uchun avvalo ijro dasturini shakllantirish zarur. Bu jarayon dastlab o'quv yili boshida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Misol tariqasida ushbu darslikka asos qilib, bir talabning iqtidorini inobatga olgan holda "Talaba shaxsiy rejasi"si tuziladi. O'rtacha ijrochilik mahoratini egallagan talaba uchun namuna sifatida o'quv yiliga quyidagi ijro dasturini tavsiya etiladi.

1-SEMESTR UCHUN IJRO DASTURI NAMUNASI:

- 1) Shashmaqom mushkilot qismidan namuna Tasnif va Garduni navo
- 2) Bastakorlar ijodidan F.Sodiqovning “Bo‘l menga mahub” asari
- 3) O‘zbek xalq kuylaridan “Dashti navo”
- 4) Yirik turkumli asar shakl namunasi sifatida Navo maqomidan “Mug‘ulchai Navo”

2-SEMESTR UCHUN IJRO DASTURI NAMUNASI:

- 1) Shashmaqom mushkilot qismidan namuna Muxammasi navo
- 2) Bastakorlar ijodidan G‘.Toshmatov “Guljamol” asari
- 3) O‘zbek xalq kuylaridan “Eshvoy” (cholg‘u yo‘li)
- 4) Yirik turkumli shakl namunasi sifatida Navo maqomidan “Saraxbori Navo”

Tanlangan ijro dasturi, asarlarga berilgan sharhlar va nazariy tahlillar talabaga ularning o‘zlashtirishda vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan o‘z o‘rinida, Navo maqomi borasida to‘liq tushuncha ham beradi. Bu ta‘lim tizimi maqom ijrochiligining keyingi bosqichlaridagi yirik janrli asarlarni o‘zlashtirishda ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda xalq va bastakorlik borasida ham kerakligicha ijodiy tushuncha hosil qilishga imkon yaratib beradi.

Talabaning konservatoriyagacha bo‘lgan davrdagi ijro ko‘nikmalarini har tomonlama hisobga olgan holda, ijro dasturidan joy olgan shashmaqom cholg‘u yo‘llaridan Tasnifi Navo asari bilan yaqindan nazariy va amaliy o‘zlashtirishga kirishiladi. Asar timsolida, talaba Shashmaqom va Toshkent – Farg‘ona maqom cholg‘u yo‘llaridagi boshqa kuylar borasida ham ma‘lumotga ega bo‘ladi.

G‘ijjak cholg‘usida ijrochilik holati.

G‘ijjak sozi cholg‘uchi tomonidan o‘tirgan holatda ijro etiladi. Ijro holatiga ko‘ra cholg‘uchi yelkalarini bo‘sh tutib, o‘tirg‘ichga suyanmasdan, o‘rindiqlarning chetiga yaqinroq, hamda mustahkam o‘tirishi lozim. (1-rasm)

Cholg‘uchining chap oyog‘i o‘tirg‘ichga to‘g‘ri holatda turishi, o‘ng oyog‘i esa, ozgina (15-20 sm) orqada turishi taqozo etiladi. Ijrochi o‘rindiqlarda o‘ziga qulay holda o‘rnashib olgandan keyin, u o‘zida erkinlikni sezib tanasining barcha qismlarini bemaolol harakatga (ya‘ni o‘ng va chap qo‘l, yelka qismlari nazarda tutiladi) keltirishi kerak bo‘ladi. (2-rasm)



1-rasm

2-rasm

Ba‘zi ijrochilarimiz bir asarni boshidan to oxirigacha bosh qismlarini, ko‘zlarini sozni griftiga (dastasiga) qarab ijro etadilar. Bu ijro noto‘g‘ri hisoblanadi.

Shu o‘rinda ba‘zi ijrochilarimiz o‘ng yelkalarini ko‘tarib oyoqlarini orasini keng qilib oladilar, bu holatlar ijrochining toliqib qolishiga olib keladi. Ijrochining o‘rindiqlarda o‘tirishi chiroyli bo‘lishi, tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lishidir. G‘ijjak sozi ijrochining chap qo‘li va chap oyog‘da o‘zining muvozanatini tutadi. Sozning kosasi ijrochining tanasiga juda ham yaqin holda turishi tavsiya etilmaydi. Chunki, g‘ijjakning kosasi va dastasi ijrochining qo‘lida erkin turish taqozo etiladi. Ijro paytida ham chap qo‘l yordamida sozni kerakli tomonga qaratib harakatlanishga qulaylik yaratadi. Ijrochi sozni mahkam yoki uni siqib ushlashi tavsiya

etilmaydi, aksincha juda ham bo'sh tutishlari lozim (4-rasm). Shunda barmoqlarning harakati ham cholg'u dastasi bo'ylab harakatlar ham yengillashadi (3-rasm).¹



3-rasm

4-rasm

Odatda, cholg'uni dastasi asosan bosh va ikkinchi barmoqlar oralig'ida, o'rtalaridagi bo'g'inda o'z o'rmini egallaydi. Dastada bosh barmoq asosiy vazifani bajaradi. Chunki, bosh barmoq orqali ijroda zarur bo'lgan harakatlar osonlashadi. Akademik ijroda chap qo'lning tirsak qismi g'ijjakning kosasidan ko'tarilib turadi. An'anaviy ijrochilikda esa chap qo'l tirsak qismi g'ijjakning kosasiga tegib turish hollari ham uchrab turadi. Iloji boricha an'anaviy ijroda ochiq sim kamroq ishlatilsa, ohang tarannumi raso, chiroyliroq bo'ladi.

An'anaviy ijrochilik chap qo'l barmoqlar harakati, akademik uslub ijrochisining barmoqlari joylashuvidan oz bo'lsa ham farq qiladi. An'anaviy ijrochilikda barmoqlar bir-biriga yaqinroq holda tutiladi. Ko'rinishda ular bir-biriga jipslashib olgandek ham ko'rinadi.

An'anaviy ijrochilikda barmoqlar cholg'u dastada juda ham yumshoq joylashishi talab etiladi. Har bir barmoq yolg'izlanib qolishi ijroda soxtalikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham birinchi barmoqqa ikkinchisi, ikkinchisiga uchinchisi doimo yordam berishi taqozo etiladi. Shu usul tufayli har xil nola-qochirimlarni qiyinchiliksiz ifodalasa

bo'ladi. Birinchi barmoq joyida turib, ikkinchi barmoq bilan pastdan tepaga 1-ton, kerak bo'lsa, undan ko'proq *kashish, molish* namunalarini ishlatilsa bo'ladi. Barmoqlar uchi do'mboqchalarining, ya'ni yumshoq joylari bilan simga qo'yilsa ayni muddao bo'ladi. Lekin, tirnoqqa yaqin joyi bilan simda harakat qilib bo'lmaydi. G'ijjakning an'anaviy ijrochilikdagi siri ham shundaki, barmoqlarning sim ustidagi harakati, ya'ni pastga yoki yuqoriga surilib yurishidadir.

Savollar:

1. An'anaviy cholg'u ijrochiligi borasida nimalarni bilasiz?
2. O'tmishda musiqa borasida izlanishlar olib borgan allomalaridan kimlarni bilasiz?
3. G'ijjak cholg'u ijrochiligini milliy musiqa san'atidagi o'rni nimalardan iborat?
4. Markaziy Osiyo xalqlaridagi mavjud cholg'ularni farqlab bering.
5. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra ijrochilik san'ati qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
6. Qaysi mashhur g'ijjakchilarni bilasiz?
7. An'anaviy ijroda chap qo'l g'ijjak kosiga qay holda turishi kerak?
8. O'ng va chap qo'l harakatlarining o'ziga xos jihatlarini tavsiflab bering?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. An'anaviy cholg'u ijrochilik tarixi borasida to'liq ma'lumotlar to'plang.
2. Milliy cholg'ularimizni internet orqali boshqa xalqlar cholg'ulari bilan taqqoslang.
3. XX asrgacha ijod etgan allomalarning musiqiy risolalarini o'qing.
4. Kursida o'tirishda o'ng va chap oyoqlar holatiga e'tiborli bo'ling.
5. Cholg'u ijrochiligiga borasida ma'lumotlar to'plang va jarayonini taqqoslang.

Tayanch iboralar: manbaa, ijrochilik, milliy, mashhur, ustoz-shogird, yo'nalish, tarix, ijrochilik holati, kamon, ijro dasturi.

¹ F.Худоев "Г'ижжак чолгу ижрочилги аъналарини". "Мухаррир" нашриёти, Т., 2014



2-3-DARSLAR: Shashmaqomning mushkilot qismi asarlari.

Tasnifi navo.

Musiqqa ta'limida asarlarning tub mohiyatini anglab o'zlashtirish doimo ijobiy natijalarga olib kelgan. Shu bois, har bir o'quvchi yoki boshlang'ich darajadagi sozandalarni o'zlashtirayotgan asarlarini to'laqonli anglab, tushunib olishlari muhim ekanligini e'tirof etmoqchimiz. Albatta, nazariy manbaalarda maqomlarning tarkibiy qismlari to'g'risida ma'lumotlar atroflicha va asosli keltirilgan bo'lsada, shashmaqomning mushkilot qismi kuylari nomlari haqida mavjud bu manbaalarga tayangan holda mashg'ulotlar uchun qisqacha sharh berib o'tishni lozim deb bildik.

“**Tasnif**” (arabcha so'z bo'lib, “yaralish”, “yaratilgan asar” demakdir)² – har bir maqomlarning cholg'u bo'limlari tasnif kuy yo'llari bilan boshlanadi. Uning har bir takti 2/4, 4/4 o'lchovlarida kelib kuy jarayonida o'zgarmay davom etadi. Tasniflarning doyra usullari deyarli bir xil bo'lsada, ba'zan kuy xarakteriga qarab qisqaroq shakldagi ko'rinishini ham uchratish mumkin.

Tasniflar maqomlarning har birida mustaqil musiqiy mavzulariga egadirlar. Ularning kuy-ohang asoslari maqomi hisobiga bir biridan bevosita farqlanib boradi. Aytish joizki, ularning kuy bo'laklari ohang mazmunidan kelib chiqib goh uzun, gohida qisqa bo'lib, xona va bozgo'ylari turlicha bo'lishi ham mumkin. Shashmaqom cholg'u yo'llarining boshlang'ich qismi bo'lgan Tasnif o'z shakliga va albatta keng ovoz ko'lamiga ega bo'lib, maqomlar cholg'u yo'lining asosiy mavzui, negizi hisoblanadi. Uning ma'lum ohang va kuy bo'laklari o'zidan keyin keladigan qismlarda ham ritmik yoki kuy variatsiyalari sifatida ham uchrab turadi.

“**Tarje**” (arabchadan “qaytarish”, “takrorlash”) – Shashmaqomda ko'pincha Tasnifdan keyin o'rin olgan bo'lib, 2/4 o'lchovida keladi. O'z ohangida ijro etilayotgan kuyning turli balandliklarda takrorlanib, ritmik va melodik variatsiyalar shaklida kelishi aynan tarje'ga xos xususiyatdir.

“**Gardun**” (“falak”, “osmon”, “taqdir”) – musiqqa yo'nalishida esa

² Usbu atamalar tarjimai I. Akbarovning “Музыка луғати” kitobidan olindi. “Г. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, Т., 1987.

Gardun ma'lum doyra usulining va shu bilan usul jo'rligida muayyan lad maqomga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuy hisoblanadi. Uning takt o'lchovi juda murakkab – 8/4 (2/4+3/4+3/4) – lardan iborat. Gardunda bozgo'y har bir xonadan keyin takrorlanavermay, bir kuy muayyan tugab bo'lgandan keyin kelishi ham Gardunga xos xususiyatlardandir.

“**Muxammas**” (arab. “beshlik”) – bu ibora asosan g'azaliyotda keng qo'llanilib besh misradan tuzilgan she'r shakli bilan mashhur, Shashmaqomda esa doyra usullarining nomlaridan biri bo'lib, takt-o'lchovi – 2/4 yoki 4/4 (hajmli), hissali metro-ritmik o'lchovga asoslangan va umumiy doyra usuli 16 taktdan tashkil topgan murakkab usullardan hisoblanadi.

“**Saqil**” (arab tilidan “og'ir”, “vazmin”) – musiqada takt-o'lchovi 2/4 va 4/4 hissali o'lchovlar almashinuvida yigirma to'rt taktni o'z ichiga oladigan murakkab doyra usuliga nisbatan ishlatiladi. Mushkilot yo'lidagi kuylarni ikki va undan ortiq cholg'u sozlarda jam bo'lib ijro etilishi eshituvchiga huzur-halovat baxsh etadi. Albatta, bunday yuksak saviyaga erishish uchun ansamblidagi sozlarni sadolanishiga e'tiborni qaratish va diqqat bilan ijro etish zarurdir.


“**Hafif**” (“yengil”) – Shashmaqomning Segoh maqomi Mushkilot qismidagi kuy nomi bo'lib, uning takt o'lchovi 2/4 hissali. Usuli tasnifdagidek ijro etiladi.

1. Ijro dasturidan joy olgan Navo maqomining cholg'u yo'lidan Tasnifi Navoni o'zlashtirishdan oldin unga qisqacha ma'lumot berishga to'xtalib o'tiladi. Tasniflar maqomlarning har birida mustaqil musiqiy mavzulariga egadirlar. Ularning kuy-ohang asoslari bir-biridan bevosita farqlanib boradi. Aytish joizki, ularning kuy bo'laklari ohang mazmunidan kelib chiqib goh uzun, gohida qisqa bo'lib, xona va bozgo'ylari turlicha ham bo'lishi ham mumkin. Tasniflar maqom cholg'u yo'llarining boshlang'ich qismi hisoblanib, o'z shakliga va albatta keng ovoz ko'lamiga egadir. Tasnif maqomlarning cholg'u yo'lini asosiy mavzui, negizi bo'lib ohang va ma'lum kuy bo'laklari o'zidan keyin keladigan qismlarda ritmik yoki kuy variatsiyalari sifatida ham uchrab turadi. Mushkilot bo'limidagi kuy yo'llarining har biri mustaqil cholg'u qismlar hisoblanib va o'zlari mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan

qo'shib aytiladi. Masalan: Tasnif buzruk, Tarje' navo, Garduni rost, va h.k.. Har bir maqomning kuy va ashula yo'llari o'sha maqom ladi asosi, badiiy estetik ta'siri bilangina cheklanmay, balki turli qismlarda ular o'z xususiyati bilan o'zgarib ham turadi.

2. O'z o'rinda talabaga maqom ijrochiligidagi muhim vazifa hisoblanish, usullar mavzusi borasida ham to'xtalib o'tish joizdir. Chunki, maqom ijrochiligi qonuniyati shuni taqozo etadi. Talabani ijro etayotgan asarini to'liq usulini mukammal ravishda o'zlashtirishini nazorat etish lozim. Aynan, doyra usullari maqom cholg'u va ashula yo'llarini mazmunan xarakterli tomonlarini ochib beruvchi asosiy omil bo'lganligi sababli, dars jarayoni avvalidayoq talabani doyra usuli borasidagi tushunchalarni bilishi kelgusida o'rganilajak asarni mazmunan boyitishga alohida xizmat qiladi. Asar usulini his etib chalish ijro talablaridan biri hisoblanadi. Har bir mashg'ulot uchun qo'yilgan talablar talaba ijrosida o'z aksini topsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi.

3. Tasnif usuli: chaling va yodda saqlashga harakat qiling.



Talaba Tasnif Navoni to'liq nota matni bilan tanishtirilib, bir ikki jumlar ustoz talqinida ijro etiladi. Bu jarayon talaba tasavvuri uchun manba bo'ladi.

M.M. = 64

I Xona



Tasnifi navo 14 xona va bir bozgo'yni o'z ichiga oladi. Har bir xona va bozgu sakkiz taktdan iborat. Birinchi xona salobatli ravishda kamondan to'liq foydalanilgan holda ijro etish tavsiya etiladi. Birinchi xonani *re* torida iloji boricha, 2 chi barmoq bilan *sol* notasini to'liqlatib boshlang. *Re* torida *sol* pardasi olinganda 4 chi ochiq torida *sol* ham kamondan bilan bir vaqtda olinsa ohang o'ziga xos jilo beradi.

Asarning boshlanishidayoq Navo maqomiga xos bo'lgan ohang unsurlarni anglash mumkin. Kuy juda yuqori bo'lmagan tovushda boshlanishi lozim. Birinchi xonaning 3-7 chi taktlarida *fa* notasiga kelganda, *fa* tovushiga ochiq *re* orqali yuqoridan pastga kashish (*glissando*) orqali tushing. Barmoqlar bo'g'inlari bukilgan holda bosishiga e'tibor qarating. Aniq pardalarni to'liqlantirib chalish keyingi keladigan xonalarga poydevor yasab, ohang ravonligini qo'llab quvvatlanishiga zamin yaratadi. Ikkinchi xonani ham birinchi xona kabi jonlantirib chaling. Kuyning hamma xonalarda *fa* tovushiga kelganda ochiq *re* orqali tushishni unutmang.

II Xona



Keyingi xonalarda kuy ladi asosi, badiiy estetik ta'siri bilangina cheklanmay, balki turli jumlarida yangi-yangi melodik tuzilmalar bilan ta'siri ortib, borgan sari yuqori notalarga chiqib boraveradi. Shu o'rinda chap qo'l barmoqlari applikaturasiga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Tasnifi navoning boshqa Tasniflardan farqli, o'ziga xos rivojlanish formulasini kuzatish mumkin. Birinchi xonadan, beshinchi xonagacha ohang o'rtacha rivojlanib keyin bozgo'y bo'lakchasi yangraydi. Bu ham Navo maqomining o'ziga xosligi hisoblanadi. Asarning shu qismini alohida tayyorlab, nota yordamida cholib ko'rsating. Ijro jarayonida barmoqlar kelishuvi va tovush tozaligi ustida ishleng. Ushbu xonalarni chalishda ifodali ijroni ta'minlashga, jummalarni o'zaro bog'lanishiga e'tiborli bo'ling.

III Xona

IV Xona




V Xona



Beshinchi xonadan keyin keladigan bog'o'y esa musiqiy fikrlarni yakunlab umumlashtirib beradi. Bozgo'y kuyning o'zgarmas bo'lagi bo'lsada, xonalarni to'ldiruvchi va yakunlovchi, shu bilan birga keyingi xonalarga bog'lovchi vazifasini bajaradi. O'ng qo'l kamon harakatidan tejamkorlik bilan foydalaning. Kamondagi tezkorlik ohang ravonligiga biroz salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mushkilot cholg'u asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini yodda tutib, kamonni to'g'ri yo'naltiring. Kuyning bu bo'lagini o'zlashtirishni mustaqil mashg'ulotlarda mustahkamlash maqsadga muvofiq.



Tasnifi navo xonalaridagi ohang bo'lakchalarini ikki marotabadan takrorlamasdan bir marta ijro etishni tavsiya etamiz. Cholg'u sozlari ansabllarida esa ohang bo'lakchalarini cholg'ularga taqsimlaganda takrorlasa o'rinli bo'ladi. Asarning oltinchi xonasidan ohang o'zgacha yangi tarovat bilan pog'onama-pog'ona rivojlanib yuqori pardalarga chiqib boradi. Bu xonalar ijrosi o'qituvchi tomonidan chalinib ko'rsatiladi. Talabada tushuncha hosil bo'lgandan so'ng nota matni orqali chalib beradi.



Ettinchi xonadan boshlab *f* – ya'ni asta-sekin tovush kuchaytirilishi asar xarakterini ochib berish uchun xizmat qiladi. Buning uchun talaba o'z tovushi, ya'ni, kamonni boshqarishni nazorat qilib borishi zarur. Bu o'rinda albatta, aynan tovush boshqarish ko'nikmalari ustida ishlash talab etiladi. Asarni to'laqonli ijro etish, uni obrazli ifodalash uchun talaba uni to'liq his qila olish muhim omillardan hisoblanadi.



Yuqorida aytib o'tilgan ijrochilik jihatlarini amalga oshirish uchun aynan asarni idroklay olish, uni his qila bilish zarur. Aks holda Navo maqomiga xos ulug'vorlik hissiyotlari ijroda talqini o'z ifodasini topmay qolishi mumkin.

To'qqizinchi xona eng yuqori *sol* notasini to'lqinlatish orqali kuyga o'zgacha jilo baxsh etadi va sokinlik bilan o'z tarovatini yo'qotmagan holda tovush sadolari davomiyligini saqlab, keyingi xonalar ijro qilinib kuy o'z yakuniga yetadi. Bularning barchasini aniq ijro etish uchun sozandadan yuqori ijro mahorati talab qilinadi. Shuning uchun har bir xonani o'zlashtirishda ustoz bilan hamda, doyra usuliga alohida e'tibor qarating. Bozgo'yning birinchi taktidagi tovushlarda kamon va barmoqlar kelishuvini to'g'ri ta'minlang. Bezaklarni bajarish uchun kamondan shunday foydalanish kerakki, tovushda uzilish sezilmasligi zarur. Ijro ko'nikmalari bir oz murakkab ko'rinsada, uni sinfda ustoz ko'magida, mustaqil ravishda esa audio yozuvi yordamida va turli qo'shimcha mashqlar yordamida o'zlashtiriladi. Ijro jarayonida cholg'u torlarida *kashish va to'lqinlatish* va boshqa bezaklar tovushlar aniqligiga xalal bermasin. O'ng qo'lda kamon bilan tovushni boshqarish va chap qo'l barmoqlarining mohirlik bilan ishlatilishi orqali ba'zi kuyni to'liq ijro etish mumkin. Ayniqsa, asarning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi omil tovush balandligi (dinamika)ga alohida e'tibor berib, past tovush bilan chalganda ehtiyotkorlik va o'ta aniqlik bilan chalish orqali yangrayotgan tovush jarangining tinglovchiga yetib borishiga erishish zarur. Shu bilan birga ohang bo'laklari yuqori pog'onalariga chiqqanda tovush o'sishini yaqqol ta'riflab, tembrni aniq saqlab turish muhim omil hisoblanadi. To'qqizinchi xonaning beshinchi taktidagi *sol* tovushi va undan keyingi

notalar butun asarga avjiy unsurlarni namoyish etadi. Bu jarayonda o'ng qo'l kamon harakati ildamroq harakat qilishi talab etiladi.

Savollar:

- 1) Shashmaqom mushkilot yo'lidagi qanday asarlarni bilasiz?
- 2) Tasniflarning usul o'lchovi necha xil bo'lishi mumkin?
- 3) Bozgo'y asarda qanday ahamiyatga ega?
- 4) Pardalar tozaligini saqlash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Tasnif asarini ustozlar ijrolaridagi yozuvini tinglang.
- 2) Musiqiy bezaklarni o'rinli ishlatish ustida ishlang.
- 3) Tasnifi Navoning boshqa tasniflardan farqini aniqlang.
- 4) O'zingiz chalgan ijroni diktofonga yozib olib kamchiliklar ustida ishlang.

Tayanch iboralar: *tasnif, usul, ko'nikma, jumla, xona, bozgo'y, avj, kamon, kashish.*

4-5-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.

1. Amaliy ijrochilik mashg'ulotidan oldin cholg'u sozini sozlab oling. Dastlab kamon bilan ishlash, uning harakatlarini ravonlashtirish uchun quyidagi mashqlarni sekin sur'atda boshlab asta-sekin tez sur'atlarda mashq qilamiz. Mashqlardan ko'zlangan maqsad Tasnifi Navo asarida uchraydigan qochirimlar hamda, kamon va tovushni boshqarish ko'nikmalari ustida ishlashdan iborat.

Mashqda berilgan birinchi olti taktli mashq kamonnin tordagi harakati uchun, keyingi olti takt esa chap qo'l barmoqlarida forshlag yordamida qochirimlar hosil qilishda ko'mak beradi. Oxirgi 4 takt esa mashqni tugatish uchun kamon ravonligini ta'minlashga mo'ljallangan. Mashg'ulot paytida o'zingizning kamon tortishingiz va tovushingizni nazorat qiling.

2. Mashqlardan so'ng oldingi darsda o'zlashtirilgan Tasnifi navo asarining bozgo'y hamda 1-4 xonalarini chalib chiqamiz. Xonalarni uzviy bog'lashga va ohanglar ulug'vorlik ruhiyatini aniq jarangdor tovushlarda ifoda etishga harakat qiling. Tasnifi Navo haqida va uning boshqa Tasniflardan farqini tushuntirib bering.

3. Oldingi darslarda o'rganilgan 1-5 xonalarni doyra jo'riligida yoddan ijro etib bering. Chap qo'l barmoq harakatlarini turlicha emas, bir xil suratda chalishga va bezaklarni o'rnida ishlatishga harakat qiling. Xona jumllarini ravon kamon harakati bilan ta'minlashga intiling. Asardagi xonalarni bir-biri bilan ravon ulang. Imkon qadar ochiq torlarni kamroq

ishlatib, silliq *molish* orqali barmoqlar tizimidan to'g'ri va tartibli foydalaning.



4. Ijro jarayonida kamchiliklarni mashqlar orqali bartaraf etishga harakat qiling. Barmoqlarning aniq va yengil harakati ustida ishlang. Tasnifi navo asarining badiiy xususiyatlari ustida ishlash eng asosiy talab bo'lganligi uchun ijroda har bir tovush sofligi, chap qo'l harakatlari, nolalar ijrosidagi applikatora, hamda kamonni to'g'ri taqsimlash va tovushni nazorat qilishga erishish bugungi darsning asosiy maqsadi ekanligini unutmang.

Savollar:

- 1) Shashmaqom mushkilot yo'lidagi asarlarni o'zlashtirish uchun mashqlarining qanday ahamiyati bor?
- 2) Tasnifi navo nechta xona va bozgo'ydan tuzilgan?
- 3) O'tilgan darsdan ko'zlangan asosiy maqsad nimadan iborat deb o'ylaysiz?
- 4) Tovushlar sofligiga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Tasnif asarini ustozlar ijrolaridagi yozuvini tinglang.
- 2) Musiqiy bezaklarni o'rinli ishlatish uchun mashqlardan kengroq foydalaning.
- 3) Tasnif so'zining lug'aviy ma'nosi haqida kengroq ma'lumotlar yig'ing.
- 4) O'zingiz chalgan ijroni diktofonga yozib olib kamchiliklar ustida ishlang.

Tayanch iboralar: *tasnif, usul, ko'nikma, jumla, xona, bozgo'y, avj, kamon, kashish.*

6-9-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Garduni navo.


1. Quyidagi mashqlar orqali Shashmaqom cholg'u yo'lidagi asarlar ustida ishlang. Ushbu mashq o'ng va chap qo'l uchun bo'lib, kamon ravonligi va pardalar tozaligini ta'minlashda amaliy yordam beradi. Eslatib o'tamiz, dars jarayonida har bir talaba uchun alohida mashqlar tanlanishi mumkin.



2. Tasnifi navo asarini yoddan ijro etib bering. Cholg'uda kamon orqali hosil qilayotgan tovushlarni sofligi va ohang ravonligiga alohida e'tibor berishni unutmang. Xona va bozguylarni o'zaro ravon bog'lanishiga ko'proq ahamiyat bering.

3. Ijro dasturida berilgan Garduni Navo asarini tahlil qilishdan avval Gardunlar haqida qisqa ma'lumot berib o'tamiz. Maqom cholg'u ijrochiligida Gardunlar odatda Tasnif yoki Tarje' bilan birga ijro etiladi. Gardun, Tasnif va Tarje'ga ko'ra shaxdam va tantanavor ruhda ijro etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozir o'rganilayotgan Garduni navo ham Tasnifi navo bilan birga ketma-ket ijro etiladi. Ijro jarayonida ohang bo'lakchalarini tantanavorligini kamonning mohirona ijrosi orqali hosil etish mumkin. Cholg'uning torlari ustidagi kamonning harakati orqali kuyning jozibasini ta'minlab berish ijrochidan mahorat talab etadi. Bu borada ustozlarga har bir talabaga alohida mustaqil mashg'ulot uchun maxsus mashqlarni ishlab chiqib amaliyotga qo'llashi tavsiya qilinadi.

Asarni o'zlashtirish oson kechishi uchun dastlab Gardunning usulini o'rganing:



Ushbu usulni yodlang va xotirada saqlashga harakat qiling. Chunki, asarni xona va bozgo'ylarini bir-birlariga bog'lashda uning jozibadorligini

hosil etishda usul muhim vazifani kasb etadi. Asar borasida talaba qisman ma'lumotga ega bo'lsada, ustoz ijrosida bozguy ohang bo'lagi chalib ko'rsatiladi. To'liq asar 30-taktni o'z ichiga oladi. Kamon harakati va tovushlarni tozaligini kuzatib boring. Namunadagi nota matnida bozgo'yni to'liq ohang bo'lagi berildi. E'tibor berib ijro etilsa, bir ohang ikki marotaba takrorlanmoqda. Shu ohang bo'lakchasini ikkinchi bor qaytarishda tovushlarni past-balandligiga rioya qilishini unutmang.




Ijro etib berilgan bozgo'y ohang bo'lakchasini birgalikda oldingizdagi nota matni bo'yicha birga chalamiz. Ko'rinib turibdiki, ijro jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'lgani yo'q. Shu tartibda mashqlarni ko'paytirib boring. Asarning ohangi sizga yanada tushunarli bo'lishi uchun notalar kelishuvini xotirada saqlab borishga harakat qiling. Asar bozgo'y bilan boshlangani bois, asta-sekin takt jumalari tovushlar og'ushida rivojlanib boradi. Dars yakunida asarning usuli va bozguyini to'liq talqini talaba tomonidan ijro etiladi. Keyingi mashg'ulot jarayonigacha uyda mustaqil ravishda asarni birinchi xonasini tahlil etib kelish kerak bo'ladi.

Navbatdagi mashg'ulotimizda berilgan vazifa talaba tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa, asarning keyingi xonalarini tartibli ravishda o'rganishni boshlaymiz. Oldingi mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlar borasida 5-10 daqiqa mashq qiling. Asarning birinchi xonasi ustoz ijrosida chalib ko'rsatiladi. Nota matnidagi bezaklarga e'tibor berib boring.



Asarning birinchi xona ohang bo'lakchasi o'zidan keyingi keladigan xonaga bog'lovchi vazifasini o'taydi. Ohang o'zining musiqiy jozibasi bilan yana bozgo'yga qaytib keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, cholg'u (mushkilot) yo'lida ana shunday ohang bo'lakchalari ham qaysidir ma'noda tugallangan kuychalar hisoblanadi. Maqomlarimizning cholg'u bo'limidagi asarlar o'z lad tonalligidan uzoqlashmagan holda, pog'onama - pog'ona yuqoriga va pastga qarab yakun topadi. Bu jarayon maqom ijrochiligiga xos uslublardan biridir.

Birinchi xona o'zlashtirilgach, asarning ikkinchi xonasini o'rganamiz. Mustaqil mashqlaringiz asarning bu xonasini tahlil qilishda ijodiy ko'mak beradi. Asarning bu xona ohang bo'lachasi oldingidan bir oz farqlanadi. Kamon harakati va tovushlarning yuqori pardalarga chiqishi kuy ohangini yanada jozibalashtiradi. Ohang tantanavorligini ta'minlashda aniq pardalarda hosil bo'lajak musiqiy bezaklar kuyga tarovat qo'shadi.



Ikkinchi xonaning 1-2-taktlari, hamda 3-4- taktlari bir xil bo'lganligi bois, ularni bir-biridan dinamik ijro orqali farqlab berish lozim bo'ladi. Maqomlar cholg'u bo'limida shunday o'ziga xos xususiyatlar mavjud. O'ziga xosliklarni ijroda hosil etish uchun nazariy bilimlar kerak bo'ladi. Asarning bu ijro bo'lagini talaba nota matni yordamida to'liq ijro etib beradi.

Ushbu asarga ajratilgan mashg'ulotlar tugashidan avval talaba asarni boshidan oxirigacha ustoz nazorati ostida chalib berishi kerak bo'ladi. Ijroda usul izchilligiga rioya qilish va doyra ijrosi bilan o'z ijrosini doimo nazorat qilib borish talab etiladi. Shuningdek, dasturdagi asarlarni o'zlashtirishda talabaning nazariy bilim ko'nikma hosil qilishiga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. An'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan bezaklar - to'liq kashish, yarim kashish, molish, to'liqlatish, qo'sh forshlaglar va boshqa qochirimlarni o'z o'rnida ishlatishga harakat qiling.

Savollar:

- 1) "Gardun" so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
- 2) Asarning xona va bozgo'ylari bir biridan farqlanadimi?
- 3) Gardunning doyra usuli necha taktdan iborat?
- 4) Ohang bo'lakchasi deganda nimani tushunasiz?
- 5) Mushkilot cholg'u asarlarida bozgo'y nima vazifani bajaradi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) Asarning doyra usulini o'rganing.
- 2) Garduni Navo asarini Shashmaqomning boshqa Gardunlari bilan taqqoslang va farqlanish jihatlarini aniqlang.
- 3) Navo maqomi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ling.
- 4) Bastakor Faxriddin Sodiqovning "Bo'l menga mahjub" ashulasining audio yozuvini mustaqil eshitib keling.

Tayanch iboralar: *ohang, qochirim, tantanovor, o'lchov, gardun, molish, ravn.*

10-DARS: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Bastakorlik ijodiyoti. F.Sodiqov.

1. Dastlab avvalgi darslarda o'zlashtirilgan mashqlar asosida qo'llarni qizdirib oling. Mashqlar ijrosida o'ng va chap qo'llar holati va tovush sifatiga e'tibor bering.

2. O'tgan darsda o'zlashtirgan Garduni Navo asarini yod ijro etib bering. An'anaviy cholg'u ijrochiligiga xos milliy bezaklarni ishlatishni nazariy tushunib, ijro amaliyotingizga ham ijodiy yondoshgan holda qo'llang. Shundan so'ng Tasnifi Navo hamda Garduni Navo asarlarini yaxlit holda yoddan doyra jo'rligida to'liq ijro etib bering. Ijroda uchragan kamchiliklarni aniqlab oling. Mustaqil mashg'ulot jarayonida kamchiliklar ustida ishlang.

3. Ijro dasturdan joy olgan navbatdagi asar timsolida talaba faqatgina o'zbek bastakorlari asarlari bilan tanishibgina qolmay, balki ularning ijodiy faoliyati va ijro uslublari borasida ham ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ushbu ma'lumot talabaning kelajakdagi ijro mahoratini yanada takomillashib borishda yaqindan yordam beradi. Shu sababdan quyida ana shu masalalar bo'yicha nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi.

Navbatdagi mashg'ulotimizda bastakor Faxriddin Sodiqovning "Bo'l menga mahjub" asarini o'rganishdan avval bastakorlik borasida biroz to'xtalib o'tamiz.

Bastakorlik an'anasi musiqa asarlarining, shu jumladan, maqom turkumlarining rivojlanishi va takomillashuvida hal etuvchi axamiyatga ega. Shashmaqom ham bastakorlik an'anasining mahsuli sifatida yuzaga keldi. Shuning uchun ham bu masalaga alohida ahamiyat berilishi lozim. Manbaalarda XIV-XVI asrlar bastakorlik san'atining yuksalgan davri deb e'tirof etilgan. Bu davrda ko'plab sozanda va xonandalar qatori ajoyib bastakorlar yetishib chiqishgan.

"Bastakor" so'zi (fors-toj. "basta" - "bog'langan", "kor" - "ish", "ishlovchi")³ kuyini tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bog'lovchi - degan ma'noni bildiradi.

Bastakor o'tmishda turli yangi, original kuy va ashulalar yaratish bilan birga, tayyor kuylar mavzuida ularning ritmik va kuy

³ P.Қодиров "Оммабон мусиқий глоссарий" "Ўзбекистон" нашриёти, Т., 2016, 19-бет

variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo'llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar kiritgan. Shuningdek, yaratilgan musiqalarga yangi she'rlarni ustalik bilan bog'lab ashulalar yaratgan san'atkorlar xam bastakor nomiga mansub bo'lgan.

Bastakor musiqaning nazariy va amaliy tomonlarini bilishi bilan birga aruz ilmidan boxabar bo'lsa, bastakorlik san'atining muhim qirralarini ijodlarida kuzatish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, XIV-XV asrlarda ijod etgan bastakorlar maqomlar taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib uning takomillashtirilishida va boyitilishida ulkan hissa qo'shgan bo'lsalar, XX asrdan boshlab ularning izdoshlari o'zbek musiqasi yangi taraqqiyot sari yuksalishda samarali ijod faoliyatlarini olib bordilar. Sof milliy bastakorlik ijodiyoti bu asrda nisbatan mustaqil va o'ziga xos katta oqim sifatida o'z rivojini davomiylashtirdi. O'z ilmining bilimdonlari bo'lgan mashhur san'atkorlar xalqimiz ma'anaviy-musiqiy hayoti jo'shqin, mazmundor, rang-barang bo'lishi uchun baholi qudrat xizmat ko'rsatdilar. Albatta, bular safida atoqli san'at ustalari aynan bastakorlikda salmoqli ijod qilgan Hoji Abdulaziz Rasulov, Sodirxon Hofiz Bobosharifov, Jo'raxon So'ltonov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, G'anijon Toshmatov, Muxtorjon Murtazoyev, Muhammadjon Mirzayev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev kabi ijodkorlarni e'tirof etish lozim bo'ladi. Zikr etilgan san'atkorlarining ijodiy izlanishlari tufayli milliy va xalqchil asl ustozona an'analarimiz ardoqlandi, yosh shogirdlarga o'rgatildi, qolaversa yangi zamonaga mos ravishda ravnaq topdi.

1950 yillardan ijodkorlik uslubiyati yo'nalishida an'anaviy, aynan zamonaviy o'zbek bastakorlik ijodiyoti yana bir bor gullab-yashnagan davrni boshdan kechiradi. Bu davrdagi bastakorlar avlodi ko'lami keng va sermazmun mumtoz merosimiz va o'zbek bastakorlik san'atiga ulkan hissa qo'shgan zabardast san'atkorlar sifatida yuzaga chiqdilar.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, F.Sodiqov benazir changchi, cholg'u ijrochiligi bilan birga zamonaviy o'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati, maqom ijrochiligi, shuningdek, uning ta'lim uslubiyotida ham o'ziga xos katta maktab yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Faxriddin

Sodiqov 1914 yil 14 mayda Toshkent shahrida temiryo'lchi oilasida dunyoga kelgan.

F.Sodiqov musiqachi sifatida ijodini juda erta boshlagan. O'n ikki yoshlaridan boshlab o'z davrining yetuk ijrochilari bilan yonma-yon ishlagan. Uning ustozlari: Shoraxim Shoumarov, Abduqodir Ismoilov, No'monqori Mo'minzoda, Usta Ro'zmatxon Isaboyev, Muhiddin Hoji Najmiddinov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy va boshqalar. Shu ustozlarning jonbozligi tufayli Faxriddin Sodiqov an'anaviy mumtoz musiqa yo'llarini muqammal egallashga harakat qildi. U xalq kuylarini, qo'shiq va ashullalarini qayta ishlash chang cholg'usiga, cholg'u ansambli yoki ovoza moslashtirish, yangi musiqiy asarlarni yaratishga qaratilgan ijodiy qarashlari tez orada o'z mevasini bera boshlaydi. Ijrochilik mahorati yuksak, o'ta zehn sohibi bo'lganligi bois, bir zumda eshitganlarini yodlab olardi.

1936-1941 yillarda F.Sodiqov mohir sozanda va yosh bastakor sifatida o'zi yaratgan dastlabki asarlari bilan musiqa ixlosmandlari orasida tanila boshladi. "Hormang endi, kolxozchilar" va Cho'lpon so'ziga bastalangan "Xush keldingiz Xorazmga" kabi ashulalari tez orada xalq orasida ommalashib bastakorning shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, shoirlardan Muqimiy, Iminjon Abbos, Mirtemir she'rlariga murojaat etib bir qancha qo'shiq va ashulalarni yaratadi. "Ey chehrasi tobonim", "Vatandan minnatdorman", "Alla", "Marhabo", "Bizning o'lka" kabi ashulalar shular jumlasidandir. Ikkinchi jahon urushi yillarida ham bastakorning mislsiz ijod namunalari o'zining jozibadorligi bilan ixlosmandlarga ruhiy ozuqa bag'ishladi. Bunday asarlar jumlasiga Boboraxim Mirzayev so'zi bilan "O'zbekistondan salom", "Tankchi qasami", "Ko'p sog'indim", "Zebixon", "Timoshchenko marshi" kabi qo'shiqlarni kiritish mumkin. San'atkor 1964 yilda yaratuvchilik, ijrochilik va mumtoz musiqani targ'ib qilishdagi ulkan mehnatlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxrlari unvon bilan taqdirlanadi.⁴

1958 yilda O'zbekiston radiosi qoshida tashkil etilgan "Maqom" ansambliga musiqiy rahbar etib tayinlandi va Yunus Rajabiy bilan hamkorlikda ish olib bordi. Ansambl sozandalari qatorida u eng zabardast

⁴ А.Жабборов. "Ўзбекистон бастакорлари ва мушакшунослари" Т.,2004

ijrochi bo'lib tanildi. Uning rahbarligida ansambl jamoasi Shashmaqomning ko'plab cholg'u yo'llarini magnit tasmasiga yozib olishga erishdi. Ulardan: *Tasnifi Buzruk, Muxammasi Nasrulloj, Muxammasi Ushshoq, Muxammasi Bayot, Tasnifi Dugoh, Samoyi Dugoh, Gardumi Segoh* va boshqalar.

1972 yili O'zbekiston davlat konservatoriyasi (sobiq Toshkent Davlat konservatoriyasi) da Sharq musiqasi kafedrasining ochilishi munosabati bilan u ishga taklif etiladi. Qisqa vaqt mobaynida talabalar ansambli ijrosida tayyorlangan Tarje'i buzruk asari bilan 1973 yili Olmota shahrida o'tkazilgan II Osiyo Mintaqaviy musiqa tanlovida qatnashib, yuqori o'rinlarga loyiq deb topiladi. Bu ma'lumot buyuk ijrochining kattagina pedagogik qobiliyatidan darak beradi. Qisqa vaqt mobaynida u o'z atrofiga qobiliyatli talabalarni jamlashga muvaffaq bo'ldi va ular hozirgi kunda maqom ijrochiligida yetakchi o'rin tutib kelayotgan Abdurahim Hamidov (marhum), O'lmas Rasulov, Shavkat Mirzayev, Abduhoshim Ismoilov kabi san'atkorlardan iborat edi.

O'zbek mumtoz merosi va cholg'u ijrochiligiga ulkan hissa qo'shgan hassos san'atkor 1977 yilning 28 oktyabrida hayotdan ko'z yumdi. F.Sodiqov tomonidan yaratilgan barcha qo'shiq va ashulalar benuqson, ovoz va soz mutanosiblik bobida betakror, bastakorlik sohasida bunday uyg'unlikka erishish kamdan-kam bastakorlarga nasib etgan. "Yor bilib", "Bir go'zal", "Gul jamol", "O'lan", "Ishq", "Chorlov", "O'zbekcha vals", "Gulistonim mening", "Tinchlik qo'shig'i" kabi 400 dan ziyod asarlari mutaxassislar va muxlislar xotirasida uzoq yillar saqlanib qoladi.

Savollar:

1. "Bastakor" iborasi nimani anglatadi?
2. Nechanchi asrdan boshlab bastakorlik rivojlandi?
3. F.Sodiqov ilk bor qaysi asari bilan mashhur bo'lgan?
4. F.Sodiqov qaysi cholg'ularni mukammal o'zlashtirgan?
5. "Ey chehrai tobonim" qo'shig'ining she'r muallifi kim?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning audio yozuvini tinglang.
2. F.Sodiqovning boshqa yaratgan qo'shiq va ashularidan ma'lumotga ega bo'ling.

3. "Bo'l menga mahub" asarini she'r matni orqali ifodali ravishda xirgoyi qiling.

4. Ravshan Yunusovning "Faxriddin Sodiqov" nomli kitobini o'qing.
Tayanch iboralar: *pog'ona, monodiya, bastakor, xassos, uslub, zabardast, zukko.*

11-12-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. "Bo'l menga mahub".

Navbatdagi ikki dars mashg'ulotlarida ijro dasturidan o'rin olgan bastakor F.Sodiqovning "Bo'l menga mahub" asarini o'zlashtiramiz. Bastakorning qaysi bir ijod namunasiga murojaat etmang, ular tomonidan bastalangan asarlarning o'zgacha sehriy og'ushga soladigan jihatlarini anglash mumkin. Bu nimadan dalolat beradi degan savolga lo'nda qilib, tanlangan ohanglarning xalqchilligida deyish mumkin. Muallif tomonidan yaratilgan barcha asarlar tezda el nazariga tushgan. Bunga sabab, F.Sodiqovning bastakorlik dahosi va albatta milliy musiqiy merosimizni chuqur bilganligidir.

1. Xalqimiz xotirasidan chuqur joy olgan ushbu asar maxsus cholg'u uchun yozilgan bo'lmasada, lekin qaysi cholg'uga moslashtirib ijro etilmasin yangicha tarovatda yangraydi. Ushbu asar el ardog'idagi hofizlarimiz tomonlaridan juda ko'p marotaba ijro etilib, hozirda ham yosh ijrochilarimiz talqinida yangrab kelmoqda. Ashula shoira Saida Zunnunova so'ziga bastalangan bo'lib, ushbu asarni o'zlashtirish va to'laqonli ijro etish uchun talaba yoki ijrochi she'r matnini bilishi talab etiladi. Shuning uchun dastlab asarning she'riy matni bilan tanishib chiqamiz.

Bo'l menga mahub

Tong otganda yuzingday to'lishib, kulib,
Men o'taman ko'changdan intizor bo'lib.
Zimdan nazar tashlayman qutlug' uyinga,
Zora ko'zim tushsa deb qaddi bo'yinga.

Sen bo'lsa, ey beparvo, buni bilmaysan,
 Balki bilsang ham meni ko'zga ilmaysan.
 Bilaman zebo qizsan, shaydolaring ko'p,
 Parvonang bo'lay doim, bo'l menga mahjub.
 Oftob qilsa betoqat, soya bo'layin,
 Yulduzlaring ko'zlasang qoya bo'layin.
 Bilaman zebo qizsan, shaydolaring ko'p,
 Parvonang bo'lay doim, bo'l menga mahjub.

2. Endi birgalikda asarning audio yozuvini tinglaymiz va asarni shakl jihatidan tahlil qilib chiqamiz. Asar hammasi bo'lib, takroriy jumalari bilan 59 taktdan iborat. Ijrodan avval kuyning tayanch pardalarini aniqlab olamiz va doira usuliga e'tiborli holda ijodiy yondoshamiz. Darsdan so'ng, asarni Siroj Aminov talqinidagi audio yozuvni tinglashni tavsiya etiladi. Chunki, ushbu asar hofiz tomonidan juda maromiga yetkazib ijro etilgan. Mazkur asar daromad, miyonxad, avj va furovardan iborat bo'lib, daromad 14 - taktlar, miyonxad 6 - taktlar, avj 14 - taktlar, furovard 6 - taktlarni o'z ichiga oladi.

M.M. ♩ = 84


Mazkur kuy bo'lagi (kuy jumlas) butun ijro davomida barcha jumalarni bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Asar ijrosini boshlashdan avval o'zingizga qulay barmoqlarni cholg'u dastasida belgilab oling. Imkon qadar ochiq torni kamroq ishlatishga harakat qiling. Boshqa qo'shiq va ashulalarda ko'plab uchragandek, bu yerda ham cholg'u muqaddima vazifasini kuyning ikkinchi jumlas bajaradi. Kuyning

dastlabki jumlas sodda tuzilishi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich taktlarida ohangning urg'uli bo'g'inlari, kvarta nisbatida bo'lmish tovush sadolari ularning cho'zimlarini belgilashda hal etuvchi ahamiyat kasb etadi. Asarning ushbu bo'lagiga alohida e'tibor qarating. Chunki, ohang bo'lagi asarning oxirigacha to'liq bosh mavzu mazmunini ifodalaydi. Shu bilan birga bog'lovchi vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mashg'ulotimizni yakunigacha asarning daromad, miyonxad jumlarini o'rganiladi va talaba tomonidan ustozga eshittiriladi. Keyingi ohang jumlariga o'tishdan oldin audio yozuvini tinglang va birga qo'shib chaling. Ashulaning dastlabki satrlari quyidagi ohanglarda jaranglaydi:

Nota matnida belgilangan musiqiy bezaklarni chiqarishga diqqatliroq bo'ling. Muallifning cholg'u kuylarida, qo'shiq va ashulalarida garmonik asos ba'zida o'zini namoyon qilsa-da, shakllantiruvchi vositalar qatorida yetakchi bo'lib monodiyali tabiati ustuvor o'rin egallaydi. Asarning miyonhadida ushbu unsurlarni uchratsa bo'ladi. Ohangni kuychanligi alohida e'tiborga molik.

Ushbu jumladan boshlab tovushlar harakatchanligiga ko'proq e'tibor berilgan holda kuy mavzui uzil-kesil shakllanadi. Avvalida cholg'umiz pardalarida yangragan to'rtinchi tayanch pog'onaning yangi tovush orqali mustahkamlanishini kuzatamiz. Bunda, ayniqsa kuchsiz takt hissasidan kuchli hissaga o'tishda bastakor ohangdorlik taratishdagi sevimli odatini

yana bir bora qo‘llagan. Ashula milliy musiqa merosimizning bitmas – tunganmas boyliklari negiziga tayangan holda ijod qilinganligi asarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarning avjida bastakorning shaxsiy dastxati kabi mayda bezakli, qo‘shni parda tomon jimjimador harakatlanishdan yuzaga kelgan nafis ohangni ajratib olish qiyin emas.



Kuyning ikkinchi jumlasini dunasr kabi bir oktava yuqoridan boshlanib avj pardalarga so‘ngra yana davomli tayanch pardalarga tayangan holda asliga qaytadi. Asar rivojining rang-barangligiga erishish uchun bastakor asosiy laddalardan tashqari boshqa lad-parda imkoniyatlaridan mohirona foydalangan.



Asar naqorat va band tuzilmalarining oldinma –ketin almashinuvi ravon, namudsifat avjlar o‘zaro mutanosiblikni vujudga keltiradi. Yakunlovchi hamda ichki takroriy parchalar asarning yaxlitligini to‘liq ta‘minlab beradi. Endi esa talabadan mashg‘ulotda o‘zlashtirgan barcha ohang bo‘lakchalarini yaxlit holda, fikrlarni jamlab asarni to‘liq ijro etish talab etiladi.

Savollar:

1. “Bo‘l menga mahub” asari qaysi shoir she‘riga bastalangan?
2. Bastakorlar S.Zunnunovning yana qanday she‘rlariga kuy bastalashgan?
3. F.Sodiqov asarlari qanday asosda yaratilgan?
4. “Bo‘l menga mahub” ashulasini qaysi hofizlar ijro etgan?

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning audio yozuvini tinglang.
2. F.Sodiqovning boshqa shoirlar she‘rlariga yaratgan qo‘shiq va ashularini magnit yozuvlaridan tinglang.
3. “Bo‘l menga mahub” asarini she‘r matnini yod oling.
4. F.Sodiqov “Bo‘l menga mahub” ashulasini va “Dashtnavo” kuyi audio yozuvini mustaqil ravishda bir necha bor tinglang.

Tayanch iboralar: *she‘r, daromad, miyonxad, avj, dunasr, mahub, hofiz, shoir.*

13-15-DARSLAR: O‘zbek xalq kuylari. Dashti navo.

An‘anviy cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan har bir ijrochi talaba Shashmaqom cholg‘u va Nasr yo‘lidagi asarlar bilan chegaralanib qolmay, xalqimiz musiqa merosidan joy olgan vohalarga xos bo‘lgan cholg‘u kuylarini atroflicha o‘rganish bilan bir qatorda ularning tarixini ham chuqur bilmoqlari lozim. Yosh ijrochilarimiz ushbu asarlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda milliy musiqamiz debochasini o‘rgangan hisoblanadilar.

1. Navbatdagi cholg‘u kuyni o‘zlashtirishdan oldin o‘tgan darslarda o‘zlashtirilgan “Bo‘l menga mahub” asarini doyra jo‘rligida to‘liq va ifodali tartibda ijro etib bering. Bir vaqtning o‘zida ichki “g‘ung” ingiz yordamida so‘zlashgandek ijroni to‘liq-ravonligini ta‘minlang.


2. Birinchi semestr ijro dasturidan joy olgan navbatdagi asar mashg‘ulotlarini boshlaymiz. Dastlab asar borasida qisqa izoh. Shu kungacha musiqa ijrochilikda “Dashti navo” ning ikki ijro yo‘li mavjud bo‘lib, biri surnay va ikkinchisi g‘ijjak yo‘llari hisoblanadi. Sozanda, hofiz

va bastakor Yunusqori Yusupov ushbu asarni surnay yo'lini g'ijjak cholg'usida ommalashishiga katta hissa qo'shgan. Asarning g'ijjak ijro yo'li hassos sozanda va bastakor Mahmudjon Muhamedov ijrosida keng muxlislar orasida ommalashdi. Keyinchalik asarning g'ijjak yo'lidagi variantiga bastakor Shavkat Mirzayev tomonidan g'azal bog'langan.

Konservatoriyaning birinchi bosqich talabasi ijro dasturiga kiritilgan va ushbu darslarda o'rganiladigan "Dashti navo" kuyi cholg'u va g'azal bastalangan variantlarni ustozlar ijrosiga tayangan holda audio yozuvini tinglab va mavjud nota matni yordamida o'qishga tayyorgarchilik ko'rish tavsiya etiladi.

3. Dastlab, asarni o'zlashtirish biroz osonroq kechishi uchun asosiy ohang mavzusini aniqlab, doyra usulini to'liq o'zlashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Doyra usuli:



Tanlangan asar o'ta murakkab bo'lmasada, ijrochidan yuqori ijro saviyasini talab etiladi. Surnay cholg'usiga xos ravishda ohangning nafisligini ta'minlab borish kerak bo'ladi. Yosh kamonchi ijrochilarimiz aksariyati xalqimizning yaxshi kunlarida bayram va to'y tadbirlarida skripka cholg'usiga odatlanib qolishgan. Shu bois, cholg'u sozning sozlanish tartibi ham o'zgarishi odatiy hol. An'anaviy cholg'u ijrochiligida ham g'ijjakni kvarta intervali bo'yicha sozlab chalsa bo'ladi. Albatta, cholg'uning imkoniyatidan kelib chiqqan holda. Ba'zan cholg'u bu sozda yangrashi va ba'zilarida esa yaxshi jaranglamasligi mumkin. Aslida, mohir ijrochi uchun sozning qay yo'sinda sozlanishi asar ijrosini to'liq mazmunini ochib berishda o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Dashti navo asarini o'zlashtirishda *frigiya ladning* qo'llanilganligiga alohida e'tibor berishni unutmag. Nota matnida berilgan ushbu 4-taktli ohang bo'lakchasi butun asarning asosiy mavzusi vazifasini va qaysidir ma'noda daromad qismini bajarib keladi.



Mashg'ulotimizni ushbu ohang bo'lakchasidan o'zlatirishni boshlaymiz. Cholg'u sozingizni yaxshilab sozlab nigohingizni nota matniga qaratib, ohang bo'lakchasini ustoz ijrosida tinglang. Tovushlarni rang-barangligini o'ng qo'l kamon harakati bilan hosil qilib borishga e'tibor qaratib boring. Kuyning ikkinchi taktidagi *si bemol* tovushi oddiy, 4 chi taktidagi choraktalik nota tovushini kashish orqali hosil qilishni unutmag. Ustoz ijrosidan ko'nikma olib shu tartibda keyingi ohang bo'lakchalarini o'zlashtirishga harakat qiling. Kuyning 7-18 taktlari daromad bilan miyonhadni bir-biriga bog'lovchi ohang taktlari hisoblanadi.



E'tibor bersangiz 7 va 12 taktlar keyingi taktlarni juda yaqin takrorlanishi bo'lsada, 13-18 takt ohangi oldingilarga yakun yasab asosiy tonallikka qaytib keladi. Asarning miyonhadi ham o'zgacha ohangni o'zida mujssamlashtirib, yangi tovush pog'onalari bilan kuyning mazmunini ochib beradi.

Ushbu ohang bo'lagini o'zlashtirish biroz yengil kechishi uchun miyonhad deb nomlagan bo'lsakda, kaysidir ma'noda o'zinig yuqori tovush pog'onali bilan kichik avj vositasini bajarib kelishi ham mumkin. Asarning bu ohang bo'lagi ham ustoz tomonidan chalib ko'rsatiladi. Ijro jarayonida ohang tovushlarini talaba o'ziga qulay barmoq tizimlarida olishi foydadan xoli bo'lmaydi. An'anaviy cholg'u ijrochiligida ijrochi o'ziga ma'qul barmoq tizimlarini kashf etilishiga o'qituvchi tomonidan hech kanday cheklovlar qo'yilmaydi. Bu ham an'anaviy cholg'u ijrochiligidagi xususiyatlardan hisoblanadi. Asarni o'zlashtirishda mavjud audio va ustozning ijrolariga tayanib boriladi. Keyingi ohang bo'lagi asarning avji hisoblanib, ijrochidan yuqori mahoratni va saviyali ijroni

talab etadi. Ushbu ohang bo'lagi asarda avj vazifasini bajarib kelsada, aslida dunasrning o'zginasi hisoblanadi.



Yuqoridagi nota namunasidagi ko'rsatilgan har bir ohang bo'lakchalarini talabdan alohida-alohida chalib berishni nazorat qilib borish kerak bo'ladi.

Savollar:

1. "Frigiy" ladi iborasi nimani anglatadi?
2. "Dashti navo" asarini nechta ijro variantini bilasiz?
3. Asarni qaysi bastakor g'ijjak soziga maslashtirib va ommalashiga sababchi bo'lgan?
4. Kim tomondan ushbu asarga g'azal bastalangan?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning mavjud audio yozuvini tinglang.
2. "Dashtnavo"ning ikkinchi varianti ma'lumotiga ega bo'ling.
3. I.Rajabov "Maqom masalalariga doir" nomli qo'llanmasini takror-takror o'qing.
4. "Dashtnavo" kuyini nota matni orqali audio yozuviga moslashtirib ijro etishni davomiyligini saqlab boring.

Tayanch iboralar: *lad, dashtnavo, g'azal, surnay yo'li, g'ijjak yo'li, tonallik, rang-barang, uslub, frigiya ladi.*

16-18-DARSLAR: Joriy nazoratga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

1. O'zlashtirgan asarlarni ifodali ijrosini to'liq ta'minlash.

2. Birinchi semestr joriy nazoratini topshirishga tayyorgarlik ko'rish. Oldingi darslarda o'zlashtirgan asarlarni to'liq yod holdagi ijrosini namoyish etish. Dars jarayonlarida o'rganilgan barcha bilim va ko'nikmalarni ijroda talab doirasida ko'rsatish. Asarlardagi milliy bezaklarni o'z o'rnida, chap va o'ng qo'l harakatlarini ifodali ijrosini ijodiy yondoshgan holda ko'rsatish. O'tilgan mashg'ulotdagi asarlar jo'rnavoz bilan bir necha bor ijro etilishi lozim bo'ladi. Tasnifi Navoning bozgo'y va xonalarining o'zaro kelishuvida tayanch pardalarning xususiyatlariga alohida e'tibor berish talab etiladi. Bunda ijrochi o'zi uchun qulay bo'lgan barmoq qoidalariga va chap qo'l harakati pardalar tozaligiga e'tibor berish lozim bo'ladi. Chap qo'l barmoqlar aniqligini va pardani bosganda cholg'u torini his etib chalish ustida ishlash va bu kamchiliklarni joriy nazorat kunigacha bartaraf etish lozim bo'ladi.

Asarlarning ijro sur'ati, dinamikasi, shuningdek tovushlar sifati ustida ishlashga ahamiyatliroq bo'lishi kerak bo'ladi. Ijrodagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishga imkon bor. Har bir talaba imtihonga kirishidan oldin tinglovchilar oldida ijro etish bilan birga sahna madaniyati ustida ham ishlanadi. O'tgan darslarda o'rganilgan asarlar tarixiga, ijodkorlariga oid mavzular bo'yicha savol javoblarga tayyor turishligi uqtiriladi. Nazariy bilimlarni takrorlang.

Savollar:

1. Tasnif, Gardun so'zlarining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
2. "Bo'l menga mahjub" ashulasining qanday ijro variantlarini bilasiz?
3. G'ijjak sozida an'anaviy kuylar ijrosida cholg'u qanday interval bo'yicha sozlanadi?
4. Kim tomondan ushbu "Dashti navo" asariga g'azal bastalangan?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. O'rganilgan asarlarning mavjud audio yozuvlarini takror va takror tinglang.
2. Joriy nazorat uchun nazariy ma'lumotlarni takrorlang.
3. I. Rajabov "Maqom masalalariga doir" nomli qo'llanmasidan o'zlashtirgan asarlarga doir ma'lumotlarni o'qing.

Tayanch iboralar: *sur'at, joriy nazorat, dinamika, audio yozuvlar, g'azal, dashtnavo, nazariy ma'lumotlar.*

O'qilgan mavzular bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. А.Жабборов. Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари. - Т.:2004.
2. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. - Т.: Бадий адабиёт нашриёти. 1963.
3. Ражабов И. Мақомлар. - Т.: Санъат. 2006.
4. Тошмухаммедов М. Гижжак дарслиги. -Т.: Ўқитувчи. 1995.
5. Тошмухаммедов М. Гижжақда анъанавий ижрочиликни ўзлаштириш. Олий мусиқа ва санъат билим юртлари учун ўқув қўлланма. - Т.: 1999.
6. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (Исторические очерки). - М.: 1980.
7. Холмухамедов О.М. Гижжак синфи методикаси. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.
8. Ўзбек анъанавий мусиқа ижрочилиги хрестоматияси. (тўловчи: А.П.Хамидов) - Т.: Ўқитувчи. 1995.
9. Ўзбек халқ мусиқаси. V жилд. Юнус Ражабий нотага олган.
10. Ўзбек халқ мусиқаси. VI жилд. Юнус Ражабий нотага олган.
11. И.Ақбаров "Мусиқа луғати" "Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. -Т.:1987.

19-20-DARSLAR: Shashmaqomning turkum asarlari. Mo'g'ulchai navo.

"Maqom" atamasi (arabch.-"turar joy", "o'rin", "parda")⁵ asosan milliy musiqiy merosimiz bo'lgan kuy va ashular turkumlariga nisbatan ishlatiladi. Shashmaqom Movarounnahrda taxminan XVIII asrning birinchi yarmi va XIX asrlarda to'la to'kis shakllangan. Uning shakllanish markazi Buxoro bo'lganligi sababli Buxoro Shashmaqomi deb yuritiladi. Lekin, uni ma'lum bir sheva nuqtai nazaridan qarash noto'g'ridir. Buning sababi musiqiy risolalarni kuzatadigan bo'lsak, o'n ikki maqom barcha o'zbek va tojik xalqlari, ya'ni, asosan ikki daryo oralig'ida yashagan xalqlar merosi ekanligi aytib o'tiladi. Shashmaqom esa ana shu o'n ikki maqom, uning ovoza va sh'o'balari asosida shakllangan va Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq deb ataladi. Shashmaqomda mushkilot va nasr bo'limlari mavjud bo'lib, Nasr yo'li birinchi va ikkinchi guruh sho'balariga bo'linadi. Shashmaqom 250 dan ortiq cholg'u va ashula asarlarini o'z ichida birlashtirgan. Shashmaqomdan tashqari Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ham mavjudki, ular ham shashmaqom andozasida tartiblanganligi olimlarimiz tomonidan o'rganib chiqilgan. Shashmaqomning shakllanishi unga yangi cholg'u va ashula yo'llarining kiritilishida o'z davrining mashhur sozanda va xonandalarining xizmatlari juda kattadir.

1. Asarni o'zlashtirishdan oldin nazariy tomonlariga biroz to'xtalamiz. Mo'g'ulchai navo shashmaqomning ikkinchi guruh sho'balari turkumli asarlari silsilasiga kiradi. "Mo'g'ulcha" iborasi borasida tarixdan asosiy yozma manbaalarda aniq ma'lumotlar yetarli emas. Masalaga chuqurlashmasdan uni doyra usuli ma'nosida tushunib, o'zlashtirishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Turkumli asarlar hisoblanmish Savt va Mo'g'ulchalarni o'rganishda ohang jumllarini tartibli ravishda aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Azaldan maqomdon ustozlar tomonidan turkumli asarlarni tarkibiy qismlarini *daromad, miyohnad, namud, avj va fuovard* iboralari vositasi yordamida

⁵ И.Ақбаров. "Мусиқа луғати". Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. -Т.:1987. - 656.

tushuntirilib kelingan⁶. Eng diqqatli jihatlari Savt va Mo'g'ulchalarning ohang qurilmalari, bir ohang bo'lakchasini ikkinchisi to'ldirib kelishida o'xshashliklarni kuzatish mumkin bo'ladi.

Mo'g'ulchai navo "Bayot" sho'balari asosida yaratilgan bo'lib, o'zining asosiy lad pog'onalaridan boshlanadi. Maqomchilikda bir mavzu variatsiyasini turli tartibda rivojlanib borishiga ahamiyatliroq bo'ling. Shashmaqomning cholg'u va nasr bo'limlarida bir-biriga yaqin va o'xshash kuy qiyofalari ko'p uchraydi. Bunday maqom unsurlari o'zlariga mansub maqom ruhini aks ettirish bilan birga har tomonlama mos kelishi lozim bo'ladi. Savt va Mo'g'ulchalar birinchi qismga kirgan sho'balardan tonalligi asosida yaratilgan. Shu bois, oldin o'zlashtirgan Tasnif asarini va undagi unsurlarni tez xotirashni unutmang. Mashg'ulotlar jarayonida mazkur asarning tarkibiy qismlariga alohida izoh berib o'tiladi.

2. Endi bevosita asarni o'zlashtirishni boshlaymiz. Sozingizni yaxshilab sozlab, Navo maqomining asosiy tayanch pardalarida chap qo'lni qizdirib oling. Undan so'ng asarni o'zlashtirishning eng muhim omillaridan biri bo'lgan doyra usulini yodlashni unutmang. Chunki, usulni o'zlashtirmasdan turib asarning mohiyatiga yetib borish mushkulroq bo'ladi. Asarning usulini yodlaganingizdan keyin uni chertib ko'rsating. Demak, 2/4-3/4 ritm o'lchovlari yig'indisi 5/4 ni tashkil etadi. Usulni chertganingizda tezlashib ketishdan saqlaning. Bu holatda tovushlar ma'lum nuqtasiga etmay chala bo'lib qolishi oqibatida usuldan chiqib ketishiga olib keladi.



3. Ko'rinib turganidek, asarning birinchi takti *bum* dan boshlanadi. Mo'g'ulchalar o'zining musiqiy qurilmasi jihatidan, kuy qiyofasi va ohang xarakteri tomonlama Savtlarga juda yaqindir. Daromad qismi ohang bo'lakchalari alohida-alohida tartibda ustoz ijrosida cholib ko'rsatilganligi bois, cholg'u soziga moslashtirilgan holda asar transpozitsiya qilinganligi tushuntirib o'tiladi. Nota matni yordamida birinchi ohang jumlasini cholib

⁶ И.Ражабов "Макомлар масаласига доир" Бадний адабиёт нашриёти, Т., 1963

ko'rsating. Si notasidan *re* ochiq torga emas, balki o'sha torni o'zida suvalib *re* notasiga tushsangiz Navoga xos unsur paydo bo'ladi. Shu tartibda kuy ohangi shakllanib boraveradi. Har to'rt taktda ohang bo'lakchalari bir-birlarini to'ldirib kelishini unutmang. Bir ohang bo'lakchasi boshlanishi va tugallanishini tovushlar rang-barangligida ifoda etib boring. O'ng qo'l kamon harakti barmoqlar tizimini ravonligini ta'minlab borishi zarur. O'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida ortiqcha nola va qochirimlarga berilmasdan usul asosida kuy ohanglarini o'zagini yodlashga e'tibor bering. Chunki bunday holat usuldan chiqib ketishga sabab bo'ladi. Birinchi nota misoliga e'tibor bering.

M.M. ♩ = 78



Quyidagi ikkinchi misolda ham shu musiqiy qurilmani kuzatish mumkin. Endi shu tartibda daromad kuy jumlarini o'zlashtirishni davom ettiring.



Keyingi mashg'ulotimizga asarning bosh jumlasini yodlab, qolgan ohang jumlarini mavjud audio yozuvlari yordamida mustaqil o'zlashtirib kelishni unutmang.

Savollar:

1. Mo'g'ulcha so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
2. Mo'g'ulchai Navo" ashulasining qanday ijro variantlarini bilasiz?

3. Mo'g'ulcha usuli nimadan boshlanadi?
4. Savt va Mo'g'ulcha usuli qanday farqlanadi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. O'rganilgan asarlarning mavjud audio yozuvlarini takror va takror tinglang.

2. Mo'g'ulcha usulini chertib yodlang.

3. Nasr bo'limi ikkinchi sho'ba asarlari bilan tanishib chiqing.

Tayanch iboralar: *lad, dashtnavo, g'azal, surnay yo'li, g'ijjak yo'li, tonallik, rang-barang, uslub, frigiyladi.*

21-23 DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.

1. Dastlab navo ladi asosida mashqlar qilib qo'llarni qizdirib oling. Mashqlar jarayonida nafaqat chap qo'l harakatlari, balki, ladni eshitishga ham asosiy e'tibor qaratishni unutmang.

2. Mo'g'ulchai navoning daromad qismini o'zlashtirishdan oldin o'tgan darsda o'zlashtirilgan jumlar, usul va berilgan topshiriqlarni bajarilganligini o'zingiz ijro etib ko'rsatib bering. Pardalar tozaligi va usul bilan ohangni uzviy bog'lanishiga e'tibor qarating. E'tibor bergan bo'lsangiz oldingi mashg'ulotning ikkinchi misol nota matnidagi ohang bo'lagi to'liq asarning doimiy qaytariq vazifasini o'tamoqda edi. Ushbu jarayon Mo'g'ulchalarning barcha shahobchalarida shu tartibdagi qurilmalardan iborat bo'ladi. Bu sizning keyingi jumalarni o'zlashtirishingizda va ijro ko'nikmalar hosil qilishingizda yaqindan yordam beradi.

3. Endi asarning miyonhad bilan dunasr kuy jumlarini o'zlashtirishni boshlaymiz. Ushbu jumlar uzun taktlardan iborat bo'lmay, balki tayanch pardalar asosida qisqa bo'lakchalar sifatida yangrab o'tadi. Ustoz ijrosida asarning bu jumalari chalib ko'rsatiladi. Asar ohang jumalari aniq va ravshan bo'lganligi bois, nola va qochirimlar masalasiga jumlar to'liq yod bo'lgandan keyin alohida to'xtalib o'tiladi. Endi miyonhad va dunasr ohang jumlarini chalib bering. Ularning o'zaro uzviy bog'lanishini ravon tovushlar bilan ifodalab boring.

4. Bu mashg'ulotimiz so'ngida asarning eng ahamiyatli ohang jumlarini o'zlashtirishga kirishamiz. Mo'g'ulchai navoda ikkita namud - Bayot namudi va Navo namudi keladi. Quyida ushbu namudlar ijrosiga to'xtalamiz.

Ushbu ohang jumlasini ustoz tomonidan talabaga alohida ohang bo'lakchalari to'g'risida to'xtalib chalib ijro etib beriladi. Bu ohang jumlasida ba'zi joylarida usulni o'tkazib chalish kerak bo'lgan joylari qayta - qayta chalib beriladi. Talabada ushbu ohang jumlasidagi ijro ko'nikma hosil bo'lgach, ustoz namudi Navo jumlasini ham chalib beradi.

نامۇدى نەۋو

f

ئاھت

mf

Asarda namudi Navo avj vazifasini bajarib kelganligi bois, uni tovushlarning baland – pastligi bilan ifodali ijro etish kerak bo‘ladi. Ushbu nota misolidagi 4-5-6 taktlardagi *mi* notasidagi to‘lqinlatish orqali Navo unsurlarini chiqarishni unutmang. Namudi Navoning 9chi taktini oxirida tushunarli bo‘lishi va kamonning keyingi harakatini to‘g‘ri ta‘minlash maqsadida choraktalik *pauza* berildi. Bu *pauza* doyrada *bum* zarbi bo‘lib *hang* ohang bo‘lakchasiga ravon tushishga yordam beradi. Aynan, ushbu ohang jumlasini ko‘p marotaba takrorlashni unutmang.

Asarning *furovard* ohang jumlasini dunasni takrorlanishi bo‘lganligi sababli talaba mustaqil ravishda o‘zlashtirishligi uqtiriladi. Bu ohang jumlasini ham talabada muammo yaratmaydi. Mashg‘ulot yakunida talaba asarni nota matni vositasi orqali cholib beradi.

фуровард

mf

5. Mashg‘ulotning ushbu qismida talabaga uyga vazifa va topshiriqlar sifatida talabadan o‘zlashtirgan jumlarini yodlab kelish tushuntirib o‘tiladi. Mo‘g‘ulchanning shaxobchalarida asosiy ohang jumalari muqim saqlanib, faqat usul o‘zgarish jarayonlari borasida ham talaba batafsil to‘liq ko‘nikma hosil qilgunga to‘xtalib o‘tiladi.

Savollar:

1. “Furovard” iborasi nimani anglatadi?
2. Mo‘g‘ulcha qaysi sifati bilan Savtdan farqlanadi?
3. Navo maqomida qanday namudlar keladi?
4. Mo‘g‘ulchai navo avji qaysi avj yoki namuddan iborat?


Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning audio yozuvini tinglang.
2. Boshqa Mo‘g‘ulchalar borasida ham ma‘lumotga ega bo‘ling.
3. Murrakab qismlarni o‘zlashtirishga harakat qiling.
4. Namudlar haqida nazariy ma‘lumotlar bo‘yicha yozma ish tayyorlang.

Tayanch iboralar: musiqiy qurilma, ohang bo‘lagi, tovush rang-barangligi, barmoqlar tizimi, namud, furovard.

24-26 DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Mo'g'ulchai navo talqinchasi.


1. Dastlab amaliy ijrochilik mashg'ulotlarini odatdagidek mashqlar bilan boshlaymiz. Chap qo'l barmoqlari Navo ladi pardalarini g'ijjak dastasida mustahkamroq sezishiga ahamiyat bering.



Mashqlardan so'ng o'tgan darslarda o'zlashtirilgan Mo'g'ulchai navoni to'liq yoddan chalib chiqing. Ijroda nola-qochirimlarini usuldan chiqmasdan chalishga e'tibor bering. Tovushlar tozaligiga e'tibor berishni unutmang. Jummalarni bog'lanishida barmoq tizimiga ahamiyat qaring.

2. Talqin iborasi arab tilida "nasihat etish" ma'nosida keladi. Talqincha va undan keyin keladigan shaxobchalar o'zaro doyra usuli bilan farqlansada, asosiy bosh ohang mavzui hamma vaqt saqlanib qoladi. Misol tariqasida Mo'g'ulchai navoning bosh ohang bo'lagini talqin doyra usuliga tushirilsa, Mo'g'ulchai navo talqinchasi yangraydi. Shu tarzda keyingilarida ham davom ettirsa bo'ladi. Ohang bo'lagi ijro etilayotgan usulda uning qonuniyatlari va imkoniyatlariga tobe'lashib, zaruriyatda o'zgarishlarga ham uchrashi mumkin.

Cholg'u sozining torlarini sozlab oling. Asarni o'rganishdan avval doyra usulini chertib ko'rsating. Talqin va talqinchani bir-biridan farqlanishini unutmang.



Doyra usulini chertish jarayonida birinchi ritm o'lchovi ikkinchisi bilan ravon ulanishiga ahamiyat qaring. Chunki, har bir nota tovushi oshirilmagan bir me'yorda bo'lishi kerak. Hatto birgina ortiqcha forshlag


ham usuldan chiqib ketishga sabab bo'ladi. Endi mashg'ulotimizni talqinchaning daromad va miyonhad ohang jummlarini o'zlashtirish bilan davom ettiramiz. Talaba nigohi nota matnida bo'lgan holda ustoz ushbu jummlarni ikki - uch bor ijro etib beradi. Talabada ijro ko'nikma hosil bo'lgach ustoz bilan qo'shilib chalib berishi lozim.

Asarning bosh mavzusi tovushqatoridan uzoqlashmagan holda ijroga kirishishni yodda tuting. Mo'g'ulchadagi ohang qurilmalari singari talqinda ham shu uslubda o'zlashtirishga harakat kiling. Asarning birinchi taktidagi *si* tovushini o'zingizga qulay tarzda ikkita sakkiztalik holatida chalishingiz mumkin. Daromadning asosiy taktdan oldingi notalar bilan 7 chi taktdan keyin keladigan ohang bo'lakchasi asarning doimiy qaytariq mavzusi bo'lganligi bois, takrorlanib kelganda tovushlar rang-barangligi (musiqiy dinamika) bilan ifodalab borishni unutmang.

M.M. ♩ = 82 даромад

миёнҳад

Nota misolida keltirilgan *miyonhad* ohang jumlasini bir - biridan farqlab chalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulotimizning asosiy qismini Talqinchada keladigan namudi *oraz* unsurlaridan keyin keladigan hangni doyra usulidan chiqmagan holda o'zlashtirishga bag'ishlaymiz. Nota matni misolidagi 3/4 o'lchovni oxirgi sakkiztalik notasini 3/8 ritm o'lchoviga ravon tushishlikka e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Usulni doim his etib ijro etishga odatlaning.



Oldingi asarni o'zlashtirganingiz kabi bu ohang jumllalarini ham shu tartibda o'rganib boring. Ijro jarayonida Navo unsurlaridan uzoqlashmang.

Savollar:

1. "Talqincha" iborasi nimani anglatadi?
2. Talqincha qaysi sifati bilan Talqindan farqlanadi?
3. Ohang jumlasini deganda nima tushunasiz?
4. Asarning qurilmasi bu?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:


1. Asarning audio yozuvini tinglang.
2. Talqinchalar borasida ma'lumotga ega bo'ling.
3. Murakkab usullarni o'zlashtirishga harakat qiling.
4. Namudlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'ling.

Tayanch iboralar: musiqiy, ohang bo'lagi, tovush rang-barangligi, barmoqlar tizimi, talqincha, talqin, oraz.

27-29-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Mo'g'ulchai navo qashqarchasi.

1. G'ijjakni sozlab, qo'llarni qizdirib olgach, Mo'g'ulchai navo qashqarchasini o'zlashtirishga kirishishdan oldin o'tgan darslarda o'rgangan Mo'g'ulchai navo va Mo'g'ulchai navo talqinchasini doyra jo'rligida yoddan chalib bering. Asarning matnida xatolikka yo'l qo'ymaslikka harakat qiling. Shuningdek, o'z ijroingizni eshitib nazorat qilishga va usuldan chiqmaslikka harakat qiling.

Turkumli asar shaxobchalarida nota tovushlari maydalanib, ba'zilar yiriklashib kuy ritmikasinu muayyan tovushqatorlarida aniq tus olib boraveradi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bosh ohang mavzuida katta o'zgarish bo'lmasada doyra usuli almashinuvi bilan asarda bir muncha yengillikni kuzatish mumkin. Qashqarchalar ritm o'lchovi 4/4 bo'lib, har bir taktdagi keladigan chorak nota tovushlarni toza va aniq yangrashini namoyon etishini unutmang.



2. Qashqarcha doyra usulini o'zlashtiring. Taktdagi nota tovushlarini to'liq oxirigacha yetkazib chaling. Doyra usuli murakkab bo'lmasada, ohang jumllarining har bir sakkiztalik va choraktaliklar oralig'idagi maydalangan notalar yangraganda o'lchovning muvozanatini saqlab borishga odatlaning.

3. Asarning daromad va miyonhadlarini ustoz chalib beradi. Keyingi ijro jarayonida talaba ham ergashib chalsa ko'nikma uchun foydali bo'ladi. Mo'g'ulcha va uning barcha shaxobchalarida navo lad tonalligi doimo saqlanib qoladi.

daromad

miyonhad

mf

Musical score for 'daromad' and 'miyonhad' in 4/4 time, G major. The score consists of four staves. The first staff is labeled 'daromad' and has a dynamic marking of 'mf'. The second staff is labeled 'miyonhad'. The piece concludes with a double bar line.

Bu ham qaysidir ma'noda asarni soddaroq tartibda o'zlashtirishga yordam beradi. Turkumli asarlarni o'zlashtirishda doimo bosh ohang mavzusi va uning qurilmasini to'liq anglab olishga intiling. Chunki, bosh ohang mavzusi asar shaxobchalarida ham o'z tartibiga qarab qurilgan. Qashqarchada ohang bo'lakchalari 4 taktdan iborat bo'lib, 5 – 8 taktlardagi qisqa jumla asarning bog'lovchi bo'lagi hisoblanadi. Endi asarning daromad va miyonhad ohang jumllarini chalib bering. Har doim ijro jarayonida ohang tonalligidan uzoqlashmang.

4. Mashg'ulotlarimiz so'ngida asarning dunsar qismini o'zlashtiramiz. Mo'g'ulcha va Talqinchalarda dunsar ohang jumlasini qaysi tartiba bo'lsa, qashqarchada ham ushbu musiqiy qurilma o'z funksiyasini o'zgartirmaydi. Aksincha, ritm o'lchovi o'zgarib, murakkab usuldan yengiliga o'tib ohang jumllari ham soddalashib boradi. Dunsar ohang jumlasini ustoz ijrosida chalib beriladi. Nota matnida ko'rsatilgan musiqiy bezaklarni qanday uslubda qo'llashlik borasida ham alohida to'xtalib o'tiladi.

dunsar

f

mf

Musical score for 'dunsar' in 4/4 time, G major. The score consists of three staves. The first staff is labeled 'dunsar' and has a dynamic marking of 'f'. The second and third staves have a dynamic marking of 'mf'. The piece concludes with a double bar line.

Dunsarning 1 - 4 taktlari daromad ohang bo'lakchasini aynan qaytaruvi bo'lmasada, ba'zi unsurlarida o'xshashlik tomonlari mavjud. 5-8 taktlari esa asarning doimo takrorlanib turuvchi o'zidan oldingi va keyingi ohang jumllarini bog'lovchi ohang bo'lakchasi hisoblanadi. Qashqarcha ijrosida kamon yanada faollashib, tovushlarni aniq va ravonligini ta'minlab borilishiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Keyingi ohang jumllarini o'zlashtirishdan avval daromad, miyonhad va dunsar ohang jumllarini chalib bering. Ushbu jumllarni yanada yorqinligini hosil etish uchun navo tovushqatorlariga e'tibor qaratib borishni unutmang.

namudi ba'it

namudi navo

f

mf

furorvard

Musical score for 'namudi ba'it', 'namudi navo', and 'furorvard' in 4/4 time, G major. The score consists of six staves. The first staff is labeled 'namudi ba'it'. The second and third staves are labeled 'namudi navo' and have a dynamic marking of 'f'. The fourth staff is labeled 'furorvard' and has a dynamic marking of 'mf'. The piece concludes with a double bar line.

Asarning murakkab jumalari ortda qoldi. Mashg'ulotimiz so'ngida namudi *bayot*, namudi *oraz* va *furovard* ohang jumlarini qo'shib o'zlashtiramiz. Namudi *bayot* 8 taktli ohang bo'lakchasidan iborat bo'lib, doyra usuli soddalashganligi bois, kuy bo'lakchasini o'rganish qiyin kechmaydi. navo ohang bo'lakchasi asarning *avj* vazifasini bajarib keladi. Shuning uchun tovushlar rang-barangligida boshqa ohang jumalaridan farqlab ijro etishga intiling. Yuqoridagi ohang jumalari ustoz ijrosida talqin qilib beriladi. Talabada ijro ko'nikma hosil bo'lgach shu kuy bo'lakchalarini nota matni yordamida ijro etib berish talab etiladi. Mazkur asar bo'yicha talaba bilan savol-javob qilinadi. Talabada umumiy tushuncha va ijro ko'nikmani hosil bo'lganligi ustoz tomonidan kuzatilib, keyingi mashg'ulotga Mo'g'ulchai navo soqiynomasini mavjud audio yozuvlaridan foydalanib eshitib kelish vazifalari yuklatiladi.

Savollar:

1. "Qashqarcha" iborasi nimani anglatadi?
2. Namudi Bayotning namudi Navodan farqi niamda?
3. Mo'g'ulchai navo qashqarchasining qaysi hofizlar ijrosidagi namunalarini bilasiz?
4. Asarni o'zlashtirishda qaysi magnit yozuvidan foydalanasiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning audio yozuvini tinglang.
2. Mo'g'ulchai navoni siz o'rgangan ikki shaxobchasi bilan yoddan doyra jo'rligida chaling.
3. Asarning she'r matnlarini yodlang va o'z ijroingizda xirgoyi qilib kuylab boring.
4. O'rganilgan asarlar usularini o'zingiz chertib takrorlab boring.

Tayanch iboralar: *qashqarcha, usul, tovushlar dinamikasi, she'r matni, shahobcha, namud.*

30-32-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Mo'g'ulchai navo soqiynomasi.

1. Mashqlar:



2. Mashqlardan so'ng o'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan Soqiynoma shahobchasi yozuvini yana bir bor tinglaymiz. Asarni og'zaki tahlil qilib chiqamiz. Va bevosita Mo'g'ulchai navo soqiynomasini o'rganishga kirishamiz. Ushbu qism usulida ohang jumalari yanada sho'xchanroq va chiroyliroq yangrashi bilan bir qatorda ohang jumalari ham soddalashib boradi. Bu jarayonda o'ng qo'l kamoning tartibli ijrosini ta'minlab borishni unutmang.



3. Turkumli asarlarning soqiynomalari bevosita raqs bilan bog'liqligi bois, ijrochidan yanada e'tiborni talab etadi. Oldingi shaxobchalarda ohang jumalari bir-biri bilan ravon ulanishlikni talab etgan bo'lsa, soqiynomada esa tovushlarning aniq va dona-dona yangrashini ta'minlab berish kerak bo'ladi. Ikki va uch ohang jumalarini qo'shib o'zlashtirishga kirishamiz. Ustoz asarning daromad, miyonhad va dunasr ohang bo'lakchalarini alohida-alohida chalib ko'rsatib beradi. Keyingi mashq jarayoniga talaba ham o'z ijrosi bilan qo'shiladi. *Daromadning* asosiy ohang bo'lakchasi 4

taktdan iborat bo'lib, 5-8 taktlar esa to'liq asarning qaytariq ohang jumlasini hisoblanadi.



Ushbu ohang bo'lakchasi asarning o'zida va shaxobchalarida o'zidan oldin va keyin kelgan ohang jumllarini bog'lovchi vazifasini bajarib keladi.



Miyonhad ohang bo'lakchasi ham 4 takt bo'lib, keyingi 5-8 taktlarda bog'lovchi ohang jumlasini yana takrorlanib keladi.



Asarning bog'lovchi bo'lakchasidan keyin, 4 taktdan iborat *dunasr* ohang jumlasini yangraydi. Bu qisqa jumlaning o'zlashtirish sizda muammo keltirmaydi, chunki ushbu bo'lakcha asarning boshlanishidan beri turli doyra usullarida takrorlanib turibdi. Kamonni doimo to'g'ri yo'naltirishga e'tibor qaratib boring. Chap qo'l barmoqlar tozaligini ham saqlab borishni unutmang.



Mashg'ulotimiz so'ngida *Namudi bayot*, *Namudi navo* va *furovard* ohang jumllarini qo'shib o'zlashtiramiz. Ushbu ohang jumllarni ustoz o'z ijrolarida chalib beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ohang jumllarini yengil va ko'tarinki kayfiyatda talqin etishga odatlanib borish lozim bo'ladi. Ohang jumllarini ortiqcha nola qochirimlarsiz aniq va ravon tovushlarda ifodalab berish zarur. E'tibor bergan bo'lsangiz, doyra usuli soddalashib borgan sari namudlarning ohang jumllarini o'zlashtirish jarayoni ham yengillashib boradi.



8 taktdan iborat *namudi bayot* kuy ohangi o'zidan keyin kelayotgan *namudi navo* ohang jumlasini bilan tonallikda bir-biri bilan bog'lanib ketadi. *Furovard* ohang jumlasini esa dunasrning taroriy ko'rinishi desa ham bo'ladi. Oldingizdagi nota matni yordamida yuqoridagi ohang jumllarini chalib ko'rsating. Ijro jarayonida tovushlar tozaligini saqlab boring. Keyingi mashg'ulotimizga Mo'g'ulchani navo uforisini mavjud audio yozuvini eshitib, mustaqil ravishda o'rganib kelishni unutmang.

Savollar:

1. Soqiynoma usuli takt o'lqovi qanday?
2. Mo'g'ulchani Navo Soqiynomasi she'r matnlari asosan qaysi shoirlar she'rlari bilan aytiladi?
3. Kuy va so'z hamohangligi deganda nimani tushunasiz?
4. "Soqiynoma" iborasi nimani anglatadi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Asarning she'r matnini yodlang.
2. She'rning vazni haqida ma'lumotlar to'plang.
3. Soqiynomaning audio yozuvini tinglang.
4. O'zlashtirgan asarlarni takrorlab boring.


Tayanch iboralar: *soqiynoma*, *audio yozuv*, *shoir*, *she'riy matn*, *o'lchov*, *takt*, *hamohanglik*.

33-34-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari. Mo'g'ulchai navo uforisi

1. Mana I semestr ijro dasturiga kiritilgan shashmaqomning nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'ba turkum asarlaridan Mo'g'ulchai navoning oxirgi shaxobchasi Mo'g'ulchai navo uforisini o'zlashtirishga ham yetib keldik. Mashqlar orqali qo'llarni qizdirib olgach, 19-32 darslar mobaynida o'rganilgan turkum asarlarni oraliq nazoratigacha muntazam takrorlab boramiz. Doyra jo'rligida ijro etib o'z ijrolaringizni eshitib, asar matni, tovushlar sofligi va usul hamohangligini nazorat qilib boring.

2. Yuqorida ta'kidlanganidek, Mo'g'ulchai navo uforisi ushbu turkumning so'nggi shaxobchasi. Odatda uforlar o'zidan oldin kelgan ohang yo'li izidan yurmay, asosiy pardaga nisbatan olti parda, ya'ni seksta intervali oralig'ida baland pardadan boshlanadi. Sababi, turkum asarlarining usul jihatidan, sur'at va xususiyat jihatidan kuydan - kuyga ildamlashib borishi bo'lsa kerak. Shu bilan birga ba'zi bir musiqiy qonuniyatlarga bo'ysunmay, chetroq chiqish holatlarini ham uchratish mumkin. O'z o'rnida shuni ham aytib o'tish lozimki, turkumli asarlar shaxobchalarini ijro etishda sur'at tezlashtirilsa, ba'zi qochirimlar yoki kuydagi ayrim aylanma harakatlar boshqa tusga kiradiki, bu hol maqom ijrochiligiga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Mo'g'ulchalar va ularning shaxobchalarining kuy tuzilmasi murakkab bo'lsa-da o'zining yoqimlilik va jozibadorligi bilan eshituvchiga manzur bo'ladi.

Odatdagidek, dastlab mashg'ulotimizni asarning doyra usulini o'zlashtirishdan boshlaymiz. Ustoz maqom ijrochiligidagi yengil va og'ir uforlar doyra usullarini chertib ko'rsatib beradi. 10 - 15 daqiqa usulni o'rganishga kirishiladi. Maqom ijrochiligida doyra usullarini o'zlashtirish maqsadga eltuvchi omillardan ekanligini yuqorida ham ko'p bora ta'kidlagandik. Shuning uchun asarning kuy jumllarini o'zlashtirishda usul muhim vazifani kasb etadi. Mashg'ulot jarayonda talaba uforning doyra usulini bir necha bor chertib ko'rsatib berishi talab etiladi. Usulda ko'nikma hosil bo'lgach, ohang jumllariga o'tiladi.



3. Mo'g'ulchai navo uforini ham oldingi darslarda o'zlashtirgan shaxobchalar kabi ohang jumllarini alohida-alohida tartibda o'rganamiz. Daromad ohang jumlasini asarning boshidan to oxirigacha takroriy ohang bo'lakchasi vazifasini bajarib keladi. Bir ohang jumlasini ikki bor qaytarilgani bois, ijroda ularni tovushlar rang-barangligida farqlab berish lozim bo'ladi. Ohang jumllari sodda bo'lgani sababli ustoz asarni boshidan oxirigacha chalib beradi. Ijrodan so'ng, nimalarga e'tibor berish kerakligi borasida ham to'xtalib o'tadi.

M.M. ♩ = 130 даромад

дунаسر

баёт намуди

The image shows two musical scores. The first score is titled 'HABO HAMYDI' and consists of four staves of music in a treble clef with a key signature of one sharp (F#). The dynamics are marked 'mf'. The second score is titled 'ФУРОВАРА' and consists of three staves of music in a treble clef with a key signature of one sharp (F#). The dynamics are marked 'mf', 'poco rit.', and 'p'.

Mo'g'ulchai navo uforisi barcha qolgan uforlar kabi bir oz yengil, o'ynoqi xususiyatga ega ekanligi bois, ijroda sozanda chap qo'l barmoqlari harakati yengil bo'lishi talab etiladi. Buning uchun chap qo'l ustida ishlash, nola-qochirimlar applikatorasini aniq belgilab olish, kamon va chap qo'l harakatlari mutanosibligi ustida ishlash zarur. Ayniqsa tordantorga o'tish paytida ohanglar sofligiga erishish muhim jihatlardan biri ekanligini unutmazlik darkor.

Savollar:

1. Uforlar qanday asarlar turkumiga kiradi?
2. Shashmaqom asarlari ijrosida doyra usulini o'zlashtirish sozanda uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Applikatora deganda nimani tushunasiz?
4. Ijro madaniyatiga qanday jihatlar kiradi deb o'ylaysiz?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Turkumni to'liq holda doyra bilan chaling.
2. Oraliq nazorat uchun nazariy ma'lumotlar bo'yicha yozma ish tayyorlang.
3. Murrakab usullarni o'zlashtirishga harakat qiling.
4. Turkumda uchragan barcha Namudlarni yoddan kuylab bering.

Tayanch iboralar: *applikatora, usul, turkum, ufor, ijro madaniyati, daromad, namudlar.*

35-36-DARSLAR: Oraliq nazoratga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

1. Navbatdagi ikki dars mashg'ulotlari davomida oldingi 19-34 darslarda o'zlashtirilgan Navo maqomining ikkinchi guruh sho'abalaridan Mo'g'ulchai navo asarini to'liq yod holdagi ijrosini namoyish etish ustida ishleng. Bunda asosan yirik turkum asarini bir butun, yaxlit holda his etish, uni tinglovchiga shunday to'liq holda yetkazib berish ko'nikmalari ustida ishlab boriladi. Asarda ijro etiladigan nola-qochirimlar so'z bo'g'inlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi doimo yodda saqlanib, ijroda aynan so'z bo'g'inlari ijrosiga mos ijro shtrixlari tanlanishiga alohida e'tibor bering. Asarni mukammal yodlash uchun barcha qismlar she'riy matnlarini yodlash qat'iy talab etiladi. Oraliq nazoratidan oldingi ushbu darslar jarayonida aynan shu jihatlar ustida ishlash, asarni badiiy xususiyatlari ustida ishlash, uni tanglovchiga yetkazib berish mahorati ustida ishlash eng asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Dars jarayonlarida turkumli asarlarni o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilgan barcha bilim va ko'nikmalarni ijroda talab darajasida ko'rsatish, ayniqsa, turkum asarlarning shaxobchalari, ularning doyra usullarini o'zlashtirish zarur bo'ladi. Asarlardagi milliy bezaklarni o'z o'rnida qo'llash, chap va o'ng qo'l harakatlarini mutanosibligini ta'minlash zarur.

2. Mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan asarlar jo'rnavoz bilan bir necha bor ijro etilishi lozim bo'ladi. Mo'g'ulchai navoning shaxobchalari bilan o'zaro kelishuvida tayanch pardalarning xususiyatlariga alohida e'tibor

berish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda asarda keladigan namudlar va ularning o'zidan oldin va keyingi ohang jumalari bilan o'zaro bog'lanishini ijroda toza tovushlar orqali chalish talqini ustida ishlash lozim. O'z o'rnida ijrochi o'zi uchun qulay bo'lgan barmoq qoidalariga va chap qo'l harakati pardalar tozaligiga e'tibor berish lozim bo'ladi. Chap qo'l barmoqlar aniqligini va pardani bosganda cholg'u torini his etib chalish ustida ishlash va bu kamchiliklarni joriy nazorat kunigacha bartaraf etish lozim bo'ladi.

Turkum asarning shaxobchalar ijro sur'ati, dinamikasi, shuningdek tovushlar sifati ustida ishlashga ahamiyatliroq bo'lishi kerak bo'ladi. Ijrodagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishga imkon bor. Bu nazoratga ham talaba imtihonga kirishidan oldin tinglovchilar oldida ijro etish bilan birga sahna madaniyati ustida ham ishlanadi. O'tgan darslarda o'rganilgan asarlar tarixiga, ijodkorlariga oid mavzular bo'yicha savol javoblarga tayyorlanib, nazariy bilimlar bo'yicha ma'lumotlar takrorlab boriladi.

Savollar:

1. Sahna madaniyati ustida ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Turkum asarlarda shaxobchalar taronalardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Asarning badiiy xususiyatlari ustida ishlash deganda qanday jihatlarni tushunasiz?
4. Shashmaqom asarlarining cholg'ulardagi ijrosida so'z bo'g'inlarining qanday ahamiyati bor?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Turkum asarlarini yaxlit holda tinglab boring.
2. Oraliq nazorati mavzulari bo'yicha yozma ish tayyorlang.
3. Turkumlar she'r matnlarini yoddan takrorlab boring.
4. G'azallar mualliflari haqida ma'lumotlar to'plang.

Tayanch iboralar: *so'z bo'g'inlari, g'azal, badiiy xususiyatlar, ijro shtrixlari, oraliq nazorat, turkumlar, shaxobchalar.*

O'tilgan mavzular bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Азизбоев С. Гижжак наволари. – Т.: Фан. 1999.
2. Акбаров И.А. Муסיқа луғати. Қайта нашри. – Т.: Ўқитувчи. 1997
3. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий кўшиқчилик маданияти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
4. Ибрагимов О.А. Фергана-Ташкентские макоми. – Т.: Медиа Ланд. 2006.
5. Жабборов А.Ҳ. Ўзбекистон бастакорлари ва муסיқашунослари. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
6. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. – Т.: изд.им. Гафура Гуляма. 1972.
7. МамадалиевФ. Миллий муסיқа ижрочилиги масалалари.–Т., 2001.
8. Одилов А. Ўзбек халқ чолгуларида ижрочилик тарихи. – Т.: Ўқитувчи. 1995.

I –semestrda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar.

m	Test topshirig'i	“A”	“B”	“C”	“D”
1.	G'ijjak qanday sozlanadi?	kvarta-kvinta	kvinta *	kvarta	barcha javoblar to'g'ri
2.	Turkum asarlarda shaxobchalar taronalardan nimasi bilan farq qiladi	Usul bilan	Farqi yo'q	Nomlanish i Bilan *	Sanog'i bilan
3.	O'rta asr “Sharq Arastusi” nomini olgan buyuk musiqa bilimdoni kim?	Ibn Sino	Ar-Roziy	Abduraxmon Jomiy	Abu Nosir Farobiy *
4.	O'zbekiston kompozitorlari uyushmasi qaysi yil tashkil topgan?	1940-yil *	1961-yil	1939-yil	1999-yil
5.	Asarning badiiy xususiyatlari ustida ishlash deganda qanday jihatlarni tushunasiz?	temp ustida ishlash	dinamika ustida ishlash	badiiyligi ustida ishlash *	hammasi to'g'ri
6.	Xorazm maqomi nechta	besh maqom	olti yarim	chormaqa	olti maqom

	maqomdan iborat?		maqom*	m	
7.	Mushkilot qismi qanday nomlanadi?	alemanda	cholg'u *	menuet	kuranta
8.	"Gardun" so'zi qanday ma'noni bildiradi?	tortish	gavot	jiga	aylanish *
9.	"Interval" so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	oraliq *	birin-ketin ijro etilgan ikki tovush oraliq'i	masofa	belgi
10.	Musiqqa "Avj" – so'zi qanday ma'noni anglatadi?	me'yor	o'rta	cho'qqi *	past
11.	Shashmaqom asarlarining cholg'ulardagi ijrosida so'z bo'g'inlarining qanday ahamiyati bor?	ahamiyati yo'q	ijro shtrixlarini tanlash uchun *	to'g'ri javob yo'q	foydali bo'ladi
12.	Eng avval qaysi cholg'ular paydo bo'lgan?	damli cholg'ular.	zarbli cholg'ular.	shovqinli cholg'ular *	torli cholg'ular.
13.	Quyidagi cholg'ulardan qay biri mizrobsiz chalinadi?	qashqar rubobi	dutor *	afg'on rubobi	rubob prima
14.	Quyidagi cholg'ulardan qay biri transport qilinadi?	nay	doira	nog'ora	qashqar rubobi *
15.	Quyidagi asoblardan qaysi biri o'zbek xalq cholg'ulariga kirmaydi?	dutor	setor *	chang	g'ijjak
16.	Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansmbli rahbari kim?	O.Otajonov	S.Begmatov	A.Ismoilov *	O.Matyoqubov
17.	O'zbekiston davlat konservatoriyasi nechanchi yili tashkil etilgan?	2002 yil *	1910 yil	2000 yil	1932 yil
18.	Soqiynoma takt o'lchovi qanday?	4/4 *	2/4	7/8	3/5
19.	Mo'g'ulcha navo soqiynomasi she'r matnlari asosan qaysi shoirlar she'rlari bilan aytiladi?	Navoiy, Fuzuliy *	Muqimiy, Bobur	H.Olimjon, Shuhrat	A.Oripov, E.Vohidov
20.	Kuy va so'z hamohangligi deganda nimani tushunasiz?	bo'g'in va ohang birligi *	chiroyli so'z	usidan chiqmaslik	yaxshi ijro
21.	"Buzruk" iborasi nimani anglatadi?	kichik	tirilish	buyuk *	doyra
22.	Temperatsiyada oktava nechta yarim tonlarga bo'linadi?	12 *	8	10	11
23.	M.Mirzayev kim bilan rubobda duetlar chalgan	F.Sodiqov	T.Rajabiy	Sh.Mirzayev *	O.Nazarov

24.	G'ijjak transport qilinadimi?	ha	yo'q *	to'g'ri javob yo'q	barcha javoblar noto'g'ri
25.	Buzruk maqomi tartib bo'yicha nechanchi?	1 *	2	3	4
26.	Fa-# majorda qancha belgi mavjud?	6 ta *	3 ta	5 ta	2 ta
27.	Molishning ma'nosi nima?	urish	uzish	chertish	silash *
28.	O'zbekiston maqom markazi rahbari kim?	R.Yunusov	S.Begmatov *	O.Ibrohimov	A.Mansurov
29.	"Faxriddin Sodiqov" qo'llanmasi muallifi kim?	T.Gafurbekov	O.Nazarov	R.Yunusov *	A.Lutfullayev
30.	Qaysi belgi notalarni bir-biriga ulab chalish ma'nosini anglatadi?	rikoshet	stakkato	Legato *	pitsikato
31.	Applikatura nima?	musiqiy cholg'u	barmoqlarni to'g'ri qo'yis va almashtirish holati *	alteratsiya belgilari	sur'at
32.	Pozitsiya nima?	musiqiy asar	dinamika belgilari	menzura	cholg'uda ijro etishda qo'l vaziyati *
33.	Menzura nima?	asosiy xarakdan shayton xarakkacha bo'lgan masofa *	musiqiy janr	asar xarakteri	senzura
34.	"Tasnif" iborasi nimani anglatadi?	tartiblash, joy-joyiga qo'yish *	tirilish	qaytarish	doyra
35.	G'.Hojiqulov qaysi ijrochilik maktabi vakili	Buxoro	Andijon *	Jizzax	Sirdaryo
36.	Buxoro g'ijjakchilik maktabi vakilini toping	A.Ismoilov	G'.Hojiqulov	O'.Rasulov *	A.Dadaev
37.	G'ijjakchi bastakor to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping	Sh.Mirzayev, A.Ismoilov	G'.Toshmatov, M.Mirzayev	S.Jalil, K.Jabborov *	A.Dadaev, S.Kalonov
38.	Yu.Rajabiy nomidagi birinchi xalqaro maqomchilar tanlovi qachon o'tkazilgan	1990	1986	1987	1991 *
39.	Konservatoriyada an'anviy g'ijjakdan kimlar dars beradi	O.Nazarov, B. Mirpayazov,	S.Azizboyev, O'Qodirov,	B.Mirpaya-zov, A.Islo	O.Nazarov, A. Islomov, Q.B

		A.Isломov,Q. Bozorov	N.Qodirov *	mov	ozorov
40.	"Hafif" iborasi nimani anglatadi?	usul	yengil*	qaytarish	doyra
41.	K.Jabborov qaysi ijrochilik maktabi vakili	Xorazm	Farg'ona *	Toshkent	Andijon
42.	"Ishq" asari bastakori kim?	F.Sodiqov *	Yu.Rajabiy	K.Jabborov	G'.Toshmatov
43.	Qashqar rubob uchun yozilgan "Tong" kuyi muallifi kim?	M.Mirzayev	K.Jabborov	A.Ismoilov *	F.Sodiqov
44.	Shashmaqomning ashula bo'limi qanday ataladi?	aytim yo'li	ashula yo'li	nasr*	kuylash
45.	O'zbekiston davlat konservatoriyasida qachon "an'anaviy ijrochilik" kafedrasini ochilgan?	1990	1977*	1965	1958
46.	Shashmaqomni kim notaga olgan	Y.Rajabiy *	K.Jabborov	T.Jalilov	N.Mironov
47.	"Kashish" iborasi nimani anglatadi?	yaralish	tortmoq*	qaytarish	doyra
48.	"Saqlil" iborasi nimani anglatadi?	yengil	tirilish	og'ir *	doyra
49.	Mo'g'ulchalar Shashmaqomning nechanchi guruh sho'baligiga kiradi?	2 chi*	3 chi	1 chi	4 chi
50.	O'zbekistonda tashkil etilgan birinchi oliy musiqa o'quv yurti qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?	Toshkent davlat madaniyat instituti	Toshkent davlat konservatoriyasi	Toshkent davlat san'at instituti	Toshkent davlat pedagogika universiteti
51.	Birinchi o'zbek operasining muallifi kim?	F.Nazarov	M.Ashrafiy *	B.Gienko	F.Alimov
52.	Shashmaqomning cholg'u kuylari bo'limi qanday nomlanadi	chertim yo'li	mushkilot*	ohang	cholg'u yo'li
53.	"Segoh" maqomining tartib bo'yicha raqami nechanchi?	1 chi	2 chi	3 chi*	6chi
54.	O'zbekiston davlat konservatoriyasi kimning tashabbusi bilan bunyod etildi?	R.Qurbonov	B.Sayfulla	A.Tolipov	I.Karimov *
55.	"Furovard" iborasi nimani anglatadi?	qaytish*	takrorlash	boshlanish	uzgarmas bo'lak

		usuli bilan*	ohangi bilan	nomi bilan	she'ri bilan
56.	Mo'g'ulcha qaysi sifati bilan Savtdan farqlanadi?				
57.	Navo maqomida qanday namudlar keladi?	navo, oraz va bayot*	avji turk	navo	bayot
58.	Maqom ansambli qachon tashkil etilgan?	1934	1945	1958*	1962
59.	"Muxammas" iborasi nimani anglatadi?	to'rtlik	tirilish	qaytarish	beshlik *
60.	Mo'g'ulcha Navo avji qaysi avj yoki namuddan iborat?	avj	dunasr, avji zebo pari		navo, oraz va bayot*
61.	Xalqaro maqom forumi qayerda o'tkaziladi?	Toshkentda	Shahrisabzda*	Buxoroda	Xivada
62.	"Sharq taronalari" Xalqaro festivali ilk bor nechanchi yilda o'tkazilgan?	1998	1997*	2001	1996
63.	D. Zokirov nomidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri nechanchi yil tashkil etilgan?	1933 y.	1975y.	1965 y.	1957 y.
64.	O'zbekistonda tashkil etilgan konsert etnografik ansamblining 1-chi rahbari kim edi?	Y.Rajabiy	D.Zokirov	M.Qori Yoqubov *	F.Sodiqov
65.	"Sharq taronalari" I Xalqaro festivali g'olibi qaysi davlat vakili bo'lgan?	Ozarbayjon*	Xitoy	O'zbekiston	Hindiston
66.	Tanbur notatsiyasini kim tomonidan yaratilgan?	T.Jalilov	D.Zokirov	Y.Rajabiy	K..Xorazmiy *
67.	"Tarje" iborasi nimani anglatadi?	yaralish	tirilish	qaytarish *	doyra
68.	Iroq maqomi tartib raqami nechanchi?	7	2	6*	4
69.	"Mahallada duv-duv gap" kinofilmi musiqasini kim yaratgan?	M.Ashrafiy	M.Leviyev	S.Yudakov	B.Gienko
70.	"An'anaviy ijrochilik" kafedrasini mudiri kim?	A.Lutfullayev	O.Nazarov	B.Mirpayazov	R.Qosimov *
71.	Ayollar ovozi qaysi?	bas	tenor	bariton	soprano *
72.	Farg'on-Toshkent maqom yo'llari nechta maqomdan iborat?	2ta	6 yarim	4ta*	6ta

II- BOB. 2-SEMESTR

37-39 DARSLAR: Shashmaqomning mushkilot qismi asarlari. Muxammasi navo.

Konservatoriyada o'qishning birinchi semestri ortda qoldi. Birinchi bosqich ijro dasturiga shashmaqomning Navo maqomi tanlab olingan bo'lib, birinchi semestrda cholg'u bo'limidagi Tasnif va Gardun, hamda nasr bo'limi II guruh sho'abalaridan turkum – ya'ni, Mo'g'ulchai navo shaxobchalari bilan o'rganib chiqildi. Talabaga shu kungacha o'tgan barcha darslardagi Navo maqomiga xos musiqiy unsurlarni xotirada saqlashni uqtirilib boriladi. Ikkinchi semestrda ham ijro dasturiga kiritilgan Navo maqomi mushkilot qismining Muxammasi navo hamda Saraxborlarini o'rganamiz. Ijro dasturining bunday tuzilishi talabada nafaqat birgina Navo maqomi namunalari, balki, shashmaqomning tarkibiy tuzilmasi haqida to'liq tasavvur hosil bo'lishiga va bu boradagi bilimlarining kengayib borishiga xizmat qiladi. Natijada talaba o'quv kursi yakunigacha ma'lum darajada Navo maqomi borasida ijro ko'nikmalarini o'zlashtirishga erishadi.

Ijro dasturida belgilab olingan xalq kuylari va bastakorlar asarlari namunalari o'zlashtirishdan oldin Navo maqomidan Muxammasi navo asarini o'zlashtirishga kirishamiz. Ma'lumki, mushkilot qismining har bir kuy yo'llari mustaqil cholg'u qismlar hisoblanib o'zlariga mansub maqom nomlari bilan qo'shib aytilish bilan birga, turli qismlarda o'z xususiyatidan kelib chiqib tinglovchiga xushchaqchaqlik, g'amginlik va jasoratbaxsh kayfiyat baxsh etib, o'zgarib borishi ham mumkin. Shuning uchun ham har bir maqom cholg'u va ashularida kuy mavzui, lad tuzilmasi, doyra usuli turlicha bo'lgan musiqiy asarlar o'z ifodasini topgan.

1. Muxammaslar haqida birinchi semestr mashg'ulotlarida ma'lumotlarga ega bo'lgan edik⁷. Muxammasi navo jami 192 taktdan iborat bo'lib, to'qqiz xona va bir bozgo'ydan iborat⁸. Dastlab asarning to'liq ijrosi ustoz tomonidan ijro etib beriladi. So'ngra ustoz yana bir marotaba ushbu tanlangan asar haqida talabaga ma'lumot berib o'tishi

⁷ 2-3-daeslar. "Shashmaqomning mushkilot qismi asarlari" mavzusiga qarang.

⁸ (7-9 –xonalar nota matni bir xil bo'lgani bois, ilovada 9-xona nota matni tushirib qoldirilgan)

zarur sababi, Muxammasi navo shashmaqom cholg'u yo'lidagi boshqa Muxammaslardan tubdan farq qilishi bo'lib, uni o'zlashtirish ham bir oz murakkab. Ya'ni, asarning birinchi xonasi noan'anaviy tarzda yuqori pardalardan pastga qarab rivojlanish bilan boshlanadi. Shu o'rinda, mashg'ulotlarga ijodiy yondoshish orqali har talaba uchun samarali bo'lgan uslublarni qidirib topish va uni amaliyotda qo'llash o'qituvchilarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

I Xona

Talaba sozini sozlab nota matniga tayangan holda, birinchi xonani bir yoki undan ortiq ohang bo'lakchalarini ijro etib beradi. Asarning boshlang'ich tovushlaridayoq Navoga xos unsurlar yangrashi kerak. Demak, birinchi xona nota matnida 1 - 4 taktlardagi ohang bo'lakchasi, bir ikki tovushlarni e'tiborga olmasa 5-8 taktlarda qaytariq bo'lib keladi. Birinchi xona ohang bo'lagini oltinchi pog'onadan boshlanishi ham aynan, Muxammaslarga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Ushbu ohang bo'lakchasini kamoning ravon - to'liq harakati va barmoqlarining pardalardagi tozaligi bilan ifodali ijroni ta'minlash lozim bo'ladi. Notalar ustiga qo'yilgan bezaklarga e'tibor qaratgan holda, shu xonaning 10-13 chi taktlarida Tarj'e navoning boshlang'ich ohang bo'lagi uchrashini kuzatsa

bo'ladi. O'tgan mashg'ulotlarimizda Tasnif va Garduni o'zlashtirish jarayonida qo'llangan musiqiy bezaklarni bu asarda ham o'z joyida ishlatishni unutmang. Shashmaqom cholg'u va ashularida shunday o'xshashliklarni ko'p marotaba kuzatish mumkin. O'z o'rinda, maqom ijrochiligidagi an'anaviylik ham shundan dalolat beradi. Nota matni yordamida birinchi xona va bozgo'y ohangini o'zaro uzviy bog'lab birga qo'sh g'ijjakda ijro etamiz. Talaba birgalikdagi mashqdan ko'nikma hosil qilgandan keyin ustoz nazorati ostida o'zi mustaqil ijro etadi.

Bozgo'yning o'zi ham tugallangan jumla ohangi hisoblanganligi bois, cholg'u tovushi rang - barangli bilan ularni faqrlab bering. Bozgo'y 5 taktidagi *si* notasni *si* bekar olib jumlani oxirigacha shu tartibda davom ettirish kerak bo'ladi. Ushbu ohang jumlasini asarda bir necha bor takrorlanib keladi. Har qaytariqda shu uslubda davom ettirilaveradi. Asarni to'liq va ko'rkam yangrashi uchun doyra usulini yod olish zarurligini unutmang.



Muxammas va Saqillarning usullari murakkab hisoblanib, ijro jarayonida notalar cho'zimiga alohida e'tibor bilan yondoshish, ularning cho'zilib yoki qisqarib qolmasligi uchu doyra usuliga qat'iy rioya etish talab etiladi. Jummalarda usul va ohang doimo bir - birini to'ldirib, hamohang tizimda bo'lishini ta'minlab boring.

Ikkinchi xona Navo maqomi tayanch pardasidan boshlanib, 9 takt yangi ohang ko'rinishida, 10 taktdan esa olding xonaning shu bo'lagi takrorlanadi. Shu sababli, birini ikkinchisidan farqlatib ijro etishni tavsiya etiladi. Talabani musiqiy bezaklar va ularning qay tarzda ishlatishini ustoz doim nazorat qilib borishi zarur. Uchinchi xona birinchi taktidagi *do* pardasini 2 chi barmoq bilan to'lqinlatib (tebratib) olish kerak bo'ladi.

Aynan shu kichik bezak Navo unsurlarini eslatib boradi. Shu xonani sakkizinchi taktidagi *re* notasiga kelganda ravon va past tovushda keyingi ohang bo'lakchasiga o'tiladi.



Bu mashg'ulotimiz yakunida talabdan Muxammasi navoning birinchi xonasi, bozgo'y va 2 chi, 3 chi xonalarini ijro talqini so'raladi. Talaba mustaqil ravishda, darsdan olingan bilim - ko'nikmalarga tayangan holda, mavjud audio va nota matnidun unumli foydalanishi zarur bo'ladi. Berilgan topshiriqlar qatorida navbatdagi mashg'ulotga konservatoriya fonotekasida mavjud audio yozuvlar (aynan, A.Hamidov rahbarligi ostida yozib olingan namuna) dan asarning keyingi xonalarini eshitib kelish tavsiya etiladi.

Savollar:

1. "Muxammas" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Tasnif va Gardun ijrosi Muxammasdan nimasi bilan farq qiladi?
3. Muxammasi Navoning birinchi xonasi nechanchi bosqichdan boshlanadi?
4. Muxammasi navo necha taktdan iborat?


Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Navo maqomi namunalirini yaxlit holda tinglab boring.
2. Muxammaslar usuli mavzulari bo'yicha yozma ish tayyorlang.
3. Ijroda Navo ladi ohanglariga e'tibor bering.
4. Shashmaqomning mushkilot qismi asarlari ijrosi haqida ma'lumotlar to'plang.

Tayanch iboralar: *muxammas, usul, xona, bozgo'y, lad, musiqiy bezaklar.*

40-42-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlar.

1. Mashg'ulotlarni boshlashdan oldin mashqlar yordamida qo'llarni qizdirib olamiz. Muxammasi navoning o'tgan darsda o'zlashtirilgan qismlarini yoddan chalib takrorlaymiz. Ijroda musiqiy bezak va qochirimlarni Navo ladidan chiqmasdan chalishga harakat qilish lozim. Buning uchun talaba o'z ijrosini nazorat qilish ko'nikmasini o'zlashtirib borishi maqsadga muvofiq. Asarning keyingi qismlarini o'zlashtirishga kirishishdan oldin Muxammas usulini o'rganamiz.



2. Usulni qisman tushunib olgandan keyin uni mustahkamlab, yodlash uyga vazifa sifatida beriladi. Yuqorida berilgan tavsiyalar tushunarli bo'lsa, mashg'ulotimizni davom ettiramiz. Muxammaslar ham boshqa cholg'u kuylariga o'xshab o'zidan oldingi va keyingi jumalalar

bilan tayanch pardalar yordamida uzviy bog'lanadi. E'tibor bergan bo'lsangiz bozgo'y har doim tayanch pardada tugasa, xonalar ohang unsurlariga qarab *Iya* yoki *re* notlarida yakunlanadi. Bu ham o'z o'rnida Muxammas va Saqillarga xos xususiyatlardan hisoblanadi.



E'tiboringizni nota matnining keyingi xonalarga qarating. Hamma xonalar ohang jumalari yaxlit 16 takti tashkil etib, yana 8+8 ko'rinishida alohida ohang bo'lakchalarni o'z ichiga oladi. Bular ham asarning bosh tonalligida o'zaro bog'lanib keladi. Shu tartibda keyingi xonalar ham yuqori pardalarda yangrab tayanch tovushga qaytib keladi. Asarning 4-5-6 xona jumalari ham o'zaro Navo maqomiga xos unsurlar bilan uzviy bog'lanadi.

To'rtinchi xona birinchi taktidagi *Iya* cholg'uda ochiq torda bo'lgani bois, ohang ifodasini birinchi barmoq bilan titratib, surnay cholg'usiga xos bo'lgan *qalqana* bezagiga o'xshatib olish kerak bo'ladi. Bu bezak ko'proq birinchi va ikkinchi barmoqlar orqali ijro etilib, bunda barmoq torga bosilib yuqori va pastga o'ziga xos ma'lum miqdordagi to'lqinlatish orqali amalga oshiriladi.



V Xona

VI Xona

Umuman musiqiy bezaklarni cholg'u sozida hosil etish jarayoning eng qulay varianti ustozning ijrosidagi talqini hisoblanadi. Biz barcha cholg'ulardagi musiqiy bezaklarning notada qanchalik mukammal ifodalamaylik, amaliyotda ya'ni ustoz bilan birgalikda chalinganchalik samara bermaydi. 5-10 daqiqa talaba bilan asarda ishlatilishi kerak bo'lgan bezaklar ustida mashq qilib olinadi. Ko'nikma hosil bo'lgach asarni o'zlashtirishni davom ettiramiz. Yettinchi xona birinchi taktidan sakkizinchi taktiga qadar asar rivojlanib boradi va o'zida yana oldingi xonalarda mavjud takroriy ohanglarni namoyon etadi. Chap qo'l barmoqlar hosil qilayotgan bezaklaringizni o'tgan semestrda o'zlashtirgan Tasnif va Gardunga qiyoslab ijro eting. Navbatdagi 7-8 xonalar ohang bo'lakchasi ustida ishlaymiz. Har bir xona kuyning takomillashuviga va mazmunan boyishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu ohang jumlasini

keyingisidan rang - barang tovushlar yordamida, ya'ni tovushlar dinamikasi orqali farqlab berishni unutmang.

VII Xona

Sakkizinchi xona asarning eng kulminatsion, ya'ni yuqori pardalarda yangraganligi bois, tovushlar rang - barangligi bilan ifodalab berish kerak bo'ladi. Yuqoridagi ijro etilgan xonalar kabi tonallikdan uzoqlashmagan holda ijro etiladi. Qo'yidagi xonalar ustoz ijrosida talaba ko'nikma olguncha bir necha bor chalib ko'rsatiladi. Ustoz bilan birgalikdagi mashqlar asar audio va nota matnidan bir necha bor farqlanadi.

VIII Xona

Shashmaqom mushkilot cholg'u kuylarini o'rganishda dastlabki uch - to'rt asarni o'zlashtirish bir oz murakkab bo'lsada, keyingilarini o'zlashtirish oson kechishi haqida ustoz misollarga asoslanib tushuntirib beradi. Shu bilan birga talabaga nota matni bilan mustaqil ravishda mashqlar tavsiya etadi. Mashg'ulot jarayonida olingan barcha ijro

ko'nikmalarga tayangan holda talaba asarni bosh qismidan oxirigacha chalib berishi talab etiladi. Olingan mashg'ulotlardagi tavsiyalar, ijro ko'nikmalarini yanada mustahkamlash uchun asarni to'liq ijrosi ustoz tomonidan chalib beriladi. Keyingi mashg'ulotlarda nimalarga e'tibor qaratilishi borasida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Savollar:

1. Mushkilot cholg'u yo'llaridagi asarlar nimasi bilan Muxammasdan farqlanadi?
2. G'ijjak ijrochiligida barmoqlar joylashuvining o'ziga xosligi nimada?
3. Jumla deganda nimani tushunasiz?
4. Xona ohang jumalari Bozgo'ydan qanday farqlanadi?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Ustoz A. Hamidov rahbarligida talaba sozandalar tomonidan yozib olingan audio yozuvini eshiting.
2. Hozirda fonotekadagi mavjud yozuvlar bilan taqqoslang.
3. G'ijjak cholg'usiga xos musiqiy bezaklar va ularning amaliyotda qo'llash ustida mashq qiling.
4. Ohang jumalarni o'zaro bog'liqligini tovushlar sadosida ifoda etib berish ustida ishleng.

Tayanch iboralar: jumla, asar bo'lakchasi, bezak, tayanch parda, tovushlar dinamikasi, kulminatsiya, qalqana.

43-44-DARSLAR: Bastakorlik ijodiyoti namunalari.

G'.Toshmatov. "Guljamol".

1. Cholg'uni sozlab, qo'llarni qizdirib olgach, talaba o'tgan mashg'ulotlarda o'zlashtirgan Muxammasi navo asarini yod ijro etib berishi talab etiladi. Ustoz tomonidan ijrodagi kamchiliklar tushuntirib o'tiladi. An'anaviy cholg'u ijrochiligiga xos milliy bezaklarni ishlatishni nazariy tushunib, ijro amaliyotingizga ham ijodiy yondoshgan holda qo'llang.

2. Ijro dasturidagi "Guljamol" asarini o'rganishga kirishishdan oldin asar muallifi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishamiz. O'zbekiston

bastakorlik san'atining yorqin namoyondasi, O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor G'anijon Toshmatov 1913 yilda Andijon viloyatining Asaka shahrida tug'ilib voyaga etdi. Sozandalikni dastlab otasi Toshmat oxun Shomatovdan (dutor), akalari Karimsher (sripka), Abdulla (dutor), Muhammadali (g'ijjak) lardan, kuy bastalashni esa To'xtasin Jalilovdan o'rgangan. G'.Toshmatovning ijod yo'lini qisqa satrlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1932-1934 Andijon musiqali teatrida sozanda,
- 1934-1939 Farg'ona musiqali teatrida sozanda va musiqa rahbari,
- 1939-1946 Muqimiy nomidagi teatrdagi sozanda va bastakor,
- 1947-1949 Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursida o'qigan,
- 1946-1967 O'zbekiston radioqo'mitasidagi xalq cholg'u asboblari orkestrida sozanda-kontsertmeyster,
- 1968-1978 O'zbekiston radiosida Uyg'ur ansambli rahbari,
- 1978-1979 O'zbek xalq etnografik ansambli sozandasi,
- 1987-1988 "Maqom" ansambli badiiy rahbari,
- 1979-1994 "Dutorchi qizlar" ansamblining tashkilotchisi va badiiy rahbari lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Bastakorlikni Farg'ona teatrida "Layli va Majnun (1935)", "Farhod va Shirin" (1936) kabi spektakllariga musiqa bastalashdan boshlagan. Keyinchalik Boris Zeydman bilan hamkorlikda "Qari qiz" (Turob To'la librettosi) musiqali dramasini yaratgan. Ijodida o'zbek va uyg'ur xalqlari musiqa merosi an'analarini uyg'unlashtirib, 400 ga yaqin asarlar - ashula, qo'shiq, yalla va cholg'u kuylarida o'ziga xos qorishiq, uslub yaratishga muvaffaq bo'lgan. "Istadim", "Kezarman", "Ey begay" (Navoiy), "Guljamol", "Qaro zulfung" (Bobur), "O'ldiroyin dermusan" (Mashrab), "Dedimki" (Bedil), "Menga nomehribon bo'ldi" (Xuvaydo) kabi qo'shiqlar xalq orasida mashhur⁹.

Yuqorida ta'kidlanganidek, G'anijon Toshmatovning ijodida Andijon, Farg'ona, Toshkent (Muqimiy nomidagi) musiqali teatrlaridagi sozanda va bastakorlik faoliyati, hamda, O'zbekiston radiosida orkestr va maqom ansamblida sozanda bo'lib ishlash jarayonlari juda salmoqli bo'ldi.

⁹ Жабборов А. Ўзбекистон бастакорлари ва музикашунослари. - Т.:2004. -386.

O'sha kezlari Doni Zokirov rahbarlik qilgan orkestrida jo'rnavor sifatida taniqli sozandalar Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Nabijon Xasanov, Saidjon Kalonov va shularga o'xshagan juda ko'p moxir sozandalar va keyinchalik ular o'z vaqtining mashhur bastakorlari bilan birga faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublika radiosida uyg'ur ashula va raqs ansamblining paydo bo'lishi ham G'anijon Toshmatov nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ansambl uyg'ur xalqining eng yaxshi ashulalari, eng yaxshi raqslarini saralab, to'plab, ularni grammafond plastinkalariga, magnit tasmlariga tushirdi. G'anijon aka bu ansamblga ham juda yaxshi sozandalar, ashulachilar, iste'dodli raqqosalarni jamlab, tarbiyalab, mashhur artistlarni etishtirdi. Ansambl harakati bilan uyg'ur xalqining musiqiy merosi buyuk 12 uyg'ur muqomi tiklandi, plastinka va magnit tasmasiga tushirildi.

Ustoz bir necha yil O'zbekiston teleradio qo'mitasining "Maqom" ansamblida Yunus Rajabiy bilan ko'p yil shu merosni o'zbek maqom yo'llariga yangicha jilo, husn bag'ishladi, yosh maqomchilar ovozi bilan boyitdi.

G'.Toshmatov O'zbekiston radio va televideniesida "Dutorchi qizlar" ansamblini tashkil etdi. Hozirgi kunda ham bu ansambl respublikada eng yetuk, eng mahoratli, xalqning muhabbatiga sazovor bo'lgan jamoa bo'lib faoliyatini davom ettirib kelmoqda.


G'anijon Toshmatov o'z davrining mashhur ijodkorlari Yusufjon Shakarjonov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Akbar Xaydarov, Ma'murjon Uzoqov, do'stlari Turg'un Karimov, Shokirjon Ergashev, Ochilxon Otaxonov, Orif Xatamov, sozanda - bastakorlar, kasbdoshlar Komiljon Jabborov, Nabijon Xasanov, Dadaali Soatqulov, musiqashunos Mamajon Raxmonov kabi zabardast san'atkorlar bilan birga ijod qilgan.

Xalqimizning buyuk bastakor va sozandasi, o'zbek musiqasiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan To'xtasin Jalilovdan tabarruk qolgan yagona shogird - G'.Toshmatov o'zbek musiqasini avloddan - avlodga uzatib, uni pardoqlab, boyitib kelgan zabardast ustozlardan hisoblanadi. San'at ahli orasida G'anijon akani "usta" deydilar. Bu haqiqatdan shunday, nazm va navoda benazir ijodkor Navoiy va Lutfiy davri she'riyati, Bobur va Amiriy, Nodira va Uvaysiy lirikasidan, Muqimiy va Furqat

g'azaliyotidan, Ogahiy va Komil Xorazmiy muhammaslaridan xabardor. Shuning uchun ham o'z davrining yetuk hofizi Jo'raxon Sultonov "Bu qip - qizilni turgan - bitgani tazkira (entsiklopediya)" - deb hazillashar edi.

O'zining 60 yildan ziyod umrini ma'naviy boylik izlashga bag'ishlagan ijodkordan 400 dan ortiq asarlar meros bo'lib qoldi. G'.Toshmatov 1994 yilda sakson bir yoshida Toshkent shahrida vafot etdi.

Dastlab "Guljamol" ashulasi audio yozuvlaridan namunalar eshitish tavsiya qilinadi. Asarning keyingi talqini ustoz tomonidan chalib berilishi esa talabada o'zlashtirishga yangicha yondoshuvga asos bo'ladi. Kuyning doyra usuli murakkab bo'lmasada, ijrochi har doyra zarbini his etib chalishi ustoz tomonidan uqtirilib boriladi.



Shu darsning o'zida talaba asar muallifi, asarning ritm o'lchovi va usuli, kuyning mazmuni, ashulaning she'r matni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi.

4. Mashg'ulot jarayonida asarning asosiy, ya'ni ijro jarayonida takror qaytarilib keladigan mavzuni o'zlashtirishga kirishiladi. Sakkiz taktli ushbu kuy butun asarning bosh mavzusi hisoblanadi. Shu bois, talaba bu ijro talqiniga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Asarni o'rta ovozda kamondan to'liq foydalanib ijro etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Odatda, zabardast bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarning aksariyati maqomlarimiz tuzilmasida yaratilgan. Har bir ohang to'liq va hisob o'lchovida alohida mazmuni kasb etadi. Asarning daromad qismini ikkiga bo'lib, ya'ni, 4 taktdan o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Daromadning o'zini alohida o'zlashtirishning

o'ziga xos tomonlari mavjud. To'qqizinchi taktidan esa bosh mavzu hech kanday o'zgarishsiz to'liq holda takror qaytib keladi. Mashg'ulot jarayonida ustoz daromadning har ikki qismini bir - biriga qo'shib o'z talqinida ijro etib ko'rsatib beradi.



Ustoz mashg'ulot jarayonida har bir qismni namuna sifatida tushuntirib, o'z ijro talqinida chalib ko'rsatib beradi. Mashg'ulotning keyingi bosqichlarida ustoz bilan birga qo'shilib chalish esa asarni to'liq o'zlashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Keyingi mashg'ulotga ustoz tomonidan talabaga zarur bo'lgan vazifalar yuklatiladi. Mustaqil mashq uchun ko'rsatmalar tavsiya etiladi.

Savollar:

1. G'.Toshmatov qaysi ijrochilik maktabi vakili hisoblanadi?
2. Muqimiy nomidagi musiqali teatrda G'.Toshmatovning qanday asarlari qo'yilgan?
3. G'.Toshmatov ijodida qancha asarlar bor?
4. "Guljamol" ashulasi she'r matni qaysi shoir qalamiga mansub?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. A.Jabborovning "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" kitobidan G'.Toshmatov haqida yozma ish tayyorlang.
2. "Guljamol" ashulasining fonotekadagi mavjud yozuvlarini tinglang.
3. Asarning usulini o'zingiz chalishni mashq qiling.
4. Kuy jumllarini o'zaro bog'liqligini ta'minlash ustida ishleng.

Tayanch iboralar: *musiqiy drama, bastakorlik, entsiklopediya, musiqali teatr, sozanda, badiiy rahbar, ashula, ijrochilik maktabi.*

45-46 DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.

1. 43-44 darslarda o'zlashtirilgan bastakorlik ijodiyoti va G'.Toshmatov ijodi haqida tayyorlagan yozma ishni tekshirib chiqamiz. Undan so'ng mashqlar yordamida qo'llar qizdirib olingach kuyning o'tgan darsda o'zlashtirilgan qismigacha yoddan ijro etib chiqamiz.

2. Endi bevosita "Guljamol" asarini davomini o'zlashtirishga kirishamiz. Asarning navbatdagi ohang bo'lagi miyonhad bo'lib, 8 takti o'z ichiga oladi. Bunda musiqiy jummlar chap qo'lining silliq barmoq harakatlari va to'liq kamondan foydalanib chalish tavsiya etiladi. Kuyning to'rtinchi taktidan tovush dinamikasi bir tekisda kuchaytirib boriladi. Aynan dinamika orqali yuqori tovushlar jozibadorligini oshirib borish ta'minlanadi.



Miyonhadning to'qqizinchi taktidan yana bosh mavzu tarorlanib keladi. Keyingi dars mashg'ulotlariga oldingi berilgan topshiriqlarni to'liq bajarib, asarni o'rta avj ohang bo'lagini mavjud audio yozuvi orqali va nota matni yordamida o'zlashtirib kelish yuklatiladi.

3. Asarning o'rta avji ham 8 takdan iborat. Ustoz o'rta avjni katta avj qismi bilan birgalikda o'z talqinida ijro etib beradi. Bu jarayon talabaning mustaqil mashg'ulotini samaradorligini oshiradi. Asarning talaba ijrosida to'liq ijrosi shakllanmagunicha, an'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan nola - qochirimlarni ishlatishga biroz shoshilmaslik tavsiya etiladi. O'zlashtirish jarayonida o'ng va chap qo'ldan imkon darajasida to'g'ri foydalanish


ustoz nazoratida bo'lishi shart. O'rta *avj* oldingilardan tovush yangrashi jarayoni bilan farqlanadi. *Lya* simida barmoqlar tizimi ham oldingilardan farqli o'laroq, tovushlarning to'liq jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ijrochiga bu borada alohida tovushlar hissiyotini tushuntirib borish zarur.



Bu jumla shaxdam, intiluvchan xarakterda o'zidan keyin keladigan katta avjga imkon yaratib beradi.



Ko'rinib turganidek, asarning katta *avji* 24 takti o'z ichiga olib, o'ta jozibadorligi bilan asarga o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu bo'lak ham *furovard* qismi bilan ustoz talqinida chalib ko'ratiladi. Talabada ko'nikma hosil bo'lgach, birgalikda chalish foydadan xoli bo'lmaydi. Asarning yuqori pardalarida tovush tozaligiga va chap qo'l barmoqlarining g'ijjak torlarida mustahkamligiga e'tibor berishni unutmazlik tavsiya etiladi.



“Guljamol” asarining *furovard* qismi bosh mavzuning aynan to'liq kaytariq shakli hisoblanadi. Ohang bo'lagi ikki marotaba bir xil takrorlanib asarga xotima yasaydi.

Katta *avj* qismini alohida ustoz bilan chalib o'zlashtiring. Kichik *avj* bilan farqli tomonlarini aniqlab, ularga alohida e'tibor bering. Ijro jarayonida usulni his qilib chalishga va tovushlarning tozaligiga ahamiyat qarating.

Savollar:

- 1) G'. Toshmatov tomonidan bastalangan yana qanday asarlarni bilasiz?
- 2) “Guljamol” asarini kimlar tomonidan ijro etilgan yozuvlarini bilasiz?
- 3) “Guljamol” kimlar tomonidan notalashtirilgan?
- 4) Yuqorida o'zlashtirilgan asarda ohang jumalari necha taktdan iborat?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) "Guljamol" asarini audio yozuvlarini tinglang.
- 2) Asar jumllarini bo'lib o'rganing.
- 3) Ohang jumllarini yakunida dinamikaga e'tibor qarating.
- 4) Maxsus mashqlarni takrorlab shug'ullanishni unutmang.
- 5) Asarning daromad, miyonhad va avjlarini tahlil qilib boring va ijro ko'nikmalarini shakllantiring.

Tayanch iboralar: daromad, miyonhad, manbaa, bastakor, ohang bo'lakchasi.

47-48 DARSLAR: O'zbek xalq kuyi. "Eshvoy".

1. Ijro dasturi navbatdagi asari "Eshvoy" kuyini o'zlashtirishdan oldin, uning ijro variantlari borasida ustozlardan qolgan davra suhbatlari va bor manbaalarga tayangan holda uning yoritib berishga harakat qilamiz. Shu o'rinda aytish kerakki, barcha maqom ijrolari va mashhur qo'shiqlar turli davrlarda qaysidir bastakor tomonidan yaratilgan. Bu ijrolar xalqona bo'lganligi sababli xalq orasiga singib va xalqning ma'naviy boyligiga aylanib ketgan. Bizning davrimizda ham bastakorlar tomonidan yaratilayotgan an'anaviy qo'shiklarning xalq orasida mashhur bo'lib ketishining sababi ham shundadir.

O'zbek xalq cholg'u kuylari XVII-XVIII asrlarda noma'lum ijodkorlar tomonidan yaratilgan bo'lsada, ommalashgani bois xalq ijod namunalari qatoridan joy olgan. O'zbekiston xalq hofizi M.Tojiboev bilan suhbatda¹⁰ ushbu kuy borasida ustoz xotirasida saqlanib qolgan ba'zi bir shu mavzuga mos aniqliklar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ularning taxminiga ko'ra o'sha davrlarda Qashqardan Farg'ona vodiysiga kelib qolgan qashqar sozandalar tomonidan ijro etilib kelgan ohang bo'lib, shu yerda ijobiy o'zgarishlarga uchrab "Eshvoy" nomi bilan mashhurlashib ketgan. Ayniqsa, surnay, g'ijjak va tanbur sozlarida vodiya Mo'minjon Sobirov va Lutfullo aka, Namanganda Usta Ro'zmat, Andijonlik Rustam va Xudoyberdi ismli mehtarlar tomonidan surnayga moslashtirgan varianti


¹⁰ Ustoz M.Tojiboev bilan 2017 yili 21 yanvarda bo'lgan suhbatidan.

hanuzgacha yangrab turadi. Kuyning hozirgi ijrochilikda ikkita varianti mavjud. Biri cholg'u yo'li bo'lib, ikkinchisi xonandalar tomonidan aytilib kelinayotgan ashula hoblanadi. Asarning ikkinchi varianti ya'ni "Qora ko'zima yoray jonajonay" bilan boshlanadigan ashula yo'li dastlab, Muhiddin Qoriyoqubov tomonidan ovoz yozuvi (gramafon)ga yozib olingan.

Kuyning yana bir varianti Xorazmda ham shakllangan bo'lib, Farg'ona vodiysi namunasidan biroz farq qiladi. Lekin, kuyning bosh g'oyasi tantanovorlik, ulug'vorlik va xushchaqchaqlik xarakterlarni ifodalab har ikki variantda ham o'z mazmunini o'zgartirmaydi.

2. Eshvoy kuyini o'zlashtirish jarayoni talabalarda oson kechishi uchun kuyning bozguv va xonaga ajratilgan nota matnidan foydalanamiz. Asar jami 291 taktdan iborat. Kuy jumllarining boshlanish va tugallanish jarayonini hisobga olinsa, xonalar takti bir - biridan sanog'ida farq qiladi.

Bozgo'y 12-taktdan iborat bo'lib asar to'liq tugallanishigacha to'rt marotaba bir xil o'lchovda takrorlanib keladi. Nota matni orqali ijro etishni boshlashdan avval asarning asosiy tovushqatorlarni aniqlab oling. Ijro jarayonida ohangni tantanovor ruhyatini "to'lqinlatish, bidratma, tebratma" kabi bezaklar bilan ifodalash kerak bo'ladi.




Sozingizni sozlab bozgo'yni ijro etib bering. Kamondan to'liq foydalanib, jumla ohangini taktilar orasidagi ravonligini ta'minlang. Kuy xalq orasida surnay cholg'usi ijrosida shakllangani sababli, kamon orqali g'ijjakda ham surnayga xos nafas qochirimlarini ishlatsa bo'ladi. Masalan: Surnayda o'zgacha bir qalqana nafas bor. G'ijjakda esa u bir vaqtning o'zida kamonni tezkor harakati ostida "to'lqinlatish, yarim va to'liq kashish" ni bir vaqtda ishlatish orqali chiqariladi. (barmoqlarni o'zingizga

qulay variantini tanlab oling). Odatda, kuy to'liq yod olingandan keyin musiqiy bezaklarni amaliyotda qo'llash osonroq kechadi. Birinchi xona ustoz ijrosida chalib ko'rsatiladi. Ijro jarayonini kuzatib turgan talabada ko'nikma tushunchasi hosil bo'lgach, nota matni orqali chalish talab etiladi. Tovushlar sofligiga erishish tavsiya etiladi.



Birinchi xona 1-2 va 3-4 chi taktlar bir xil chalinib, *sol* to'liq notasi tebranma bezak bilan birinchi barmoq bilan olish tavsiya etiladi. Chunki, keladigan tovushlar o'sha barmoq orqali suvalib keyingisiga o'tiladi. Ushbu xona ohang jumlasini tayanch pardadan boshlanib, yana o'ziga qaytadi. Talaba 1 chi xonani o'zlashtirganligidan so'ng, keyingi xona mashg'ulotiga o'tiladi.



Ikkinchi xona jumlasini ham ustoz bir necha marotaba takrorlab chalib beradi. Talaba nigohi nota matni bo'lib, jumlaning ikkinchi

takrorlanishida ustoz ko'magi ostida birga ijro etiladi. Ushbu xona borasida ham nazariy tushunchalar berib o'tiladi. Ushbu xona birinchi taktidagi *fa* pardasini *fa-diez* qilib chalib, 8 chi taktda kelganda *fa* toza tovushga qaytadi. 3-4 chi taktlar 1-2 chini takrori bo'lganligi bois, ularni tovushlar sadosi orqali farqlab chalish lozim bo'ladi. Mashg'ulotning keyingisiga o'tishdan oldin bozgo'y, 1 va 2 chi xonalar sarhisob qilinib, talabdan ushbularni nota matni yordamida chalib berish talab etiladi. Kelgusi darsgacha talabaga asarni 3 va 4 chi xonalarini mustaqil o'zlashtirilib kelishi tavsiya etiladi.

Savollar:

- 1) Xalq kuylaridan yana qanday asarlarni bilasiz?
- 2) "Eshvoy" asarini kimlar tomonidan ijro etilgan yozuvlarini bilasiz?
- 3) Xalq kuylari dastlab kimlar tomonidan notalashtirilgan?
- 4) Yuqorida o'zlashtirilgan asarda ohang jumalari necha taktdan iborat?

Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- 1) "Eshvoy" asarini audio yozuvlarini tinglang.
- 2) Asar jumlarini bo'lib o'rganing.
- 3) Ohang jumlarini yakunida dinamikaga e'tibor qaring.
- 4) Maxsus mashqlarni takrorlab shug'ullanishni unutmang

Tayanch iboralar: *xalq kuylari, bastakor, bozgo'y, bidratma, kashish, nota matni.*


49-50 DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.

1. Navbatdagi darsda talaba asarni o'zlashtirgan kuy jumlarini ustozga chalib beradi. Mustaqil o'rganishga berilgan xonalar va ulardagi musiqiy bezaklarni o'z o'rnida bo'rttirmasdan chalinishi, bir jumlaning ikkinchisi bilan ravon bog'lashda tovushlar rang - barangligidan foydalanish to'g'risida tavsiyalar beriladi. 1-2 chi taktlar 3-4 chi taktlar qaytarig'i bo'lganligi bois, kamon harakati yordamida birini ravon,

ikkinchisini uzib - uzib chaling. Asar ohang jumlarida ortiqcha nola qochirimlardan saqlaning. Chunki, asar o'zida o'yinqaroq kayfiyatni mujassamlashtirgan. Bu ohang jumlarini aniq va ravon tovushlar vositasi orqali erish tavsiya etiladi.

2. Talabada yanada ijro ko'nikma mustahkamlanishi uchun 3 va 4 chi xonalarda ustoz ijrosida takror chalib ko'rsatiladi. Ushbu ohang jumlarini talabada qanday taassurot qoldirganligi so'raladi. Mushkilotlar bo'lmasa talaba nota matni yordamida ushbu xonalarni chalib beradi. Uchinchi xona 20 chi takti 19 taktning qaytaruvi bo'lib, aynan shu taktlardan kuy yuqoriga qarab yangi bosqichlarni o'zida mujassamlashtirib, oldingi va keyingi jumlar uchun bog'lovchi vazifasini o'tab beradi.

To'rtinchi xona asarning o'rta avji ham hisoblanadi. Bu xona boshqalardan o'zinig nafisligi bilan farqlanadi. Ayniqsa, 5 chi taktdagi *si* tovushi tebranib turib *do* tovushiga kashish orqali tushiladi. Kuy ohangi yuqoriga rivojlangani sari bunday bezaklar bilan musiqiy joziba berib borishni unutmang. To'rtinchi xonaning 28 chi taktidan yana asosiy lad tonalligida ohanglar kuyning asosiy tayanch pardalariga tushib keladi. Shu bois, imkon qadar toza tovushlar hosil qilishga harakat qiling. Ushbu asarni dasturiga kiritilishidan asosiy maqsad talabaning ijro texnikasini ham o'stirib borishga qaratilgan. Milliy musiqamizga xos bo'lgan ijro uslubi cholg'uvchidan o'zigi xos barmoqlar tizimini (applikatura) talab etganligi bois, har bir ijrochi bu jarayonga ijodiy yondoshish lozim bo'ladi. Bu ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun o'zingizga qulay mashqlar bilan shug'ullanishni odat qiling.



3. Beshinchi xona asarning yuqori avj jumlasini hisoblanadi. Ustoz ijrosida kuyning oxirigi xonalari to'liq chalinib ko'rsatiladi. Ushbu xona 1chi va 8 chi taktlar ohang bo'laklari shaxdam, intiluvchan xarakterda bo'lib, keyingi takt ohang bo'lakchalarini o'zaro ravon bog'lab beradi. Yuqori avjdagil *lya* va *si bemol* pardalariga chiqanda ohang bo'lakchalarni shafofligini kamon ta'minlanishligiga e'tibor qaring.

Oltinchi xona jumlasini *furovard* o'rnida ham kelishi mumkin. Dastlab ustoz ijrosida, keyingi takrorlanishda esa talaba birga qo'shib chaladi. Bu jarayon kuy jumlarini o'zlashtirishning qulay va sinalgan uslubi hisoblanadi. Katta avj, ya'ni ohangning yuqori pardalarini tozaligaga e'tibor bering. Shu jumalarni shtrixlar bilan tovushlarning ketma - ketligini ajratib ravon ijroni ta'minlashni unutmang.

Savollar:

1. Eshvoy asarining necha turini bilasiz?
2. Asar nima uchun xonalarga ajratildi?

3. Asarning cholg' u yo' li ashula yo' lidan nima bilan farqlanadi?
4. Eshvoy" asarini ijrochilaridan kimlarni bilasiz?

Mustaqil mashg' ulot uchun savol va topshiriqlar:

1. Surnay cholg' u yo' llaridagi asarlar audio yozuvlarini tinglang.
2. Mehtar iborasiga izoh bering.
3. Ushbu asarni ikki yo' nalishini ham o' zlashtirishga harakat qiling.
4. "Eshvoy" asarini bosh g' o' yalarini aniqlashga harakat qiling.

Tayanch iboralar: *Xalqona, mehtar, bo' lakcha, xona, jumla, furovard, avj.*

51-52-DARSLAR: Joriy nazoratga tayrgarlik ko' rish va uni o' tkazish.

1. O' zlashtirgan asarlarni ifodali ijrosini to' liq ta' minlash. Doyra jo' rligida yoddan, asarlarni badiiy xususiyatlarini to' liq ochib bergan holda ijro etish ustida ishlash. Bunda tovushlar dinamikasi, nola-qochirimlar, sahna va ijro madaniyati ustida ishlash.

2. Ikkinchi semestr joriy nazoratini topshirishga tayyorgarchilik ko' rish. Oldingi darslarda o' zlashtirgan asarlarni to' liq yod holdagi ijrosini namoish etish. Dars jarayonlarida o' rganilagn barcha bilim va ko' nikmalarni ijroda talab doirasida ko' rsatish. Asarlardagi milliy bezaklarni o' z o' rmida, chap va o' ng qo' l harakatlarini ifodali ijrosini ijodiy yondoshgan holda ko' rsatish. O' tilgan mashg' ulotdagi asarlar jo' mavoz bilan bir necha bor ijro etilishi lozim bo' ladi. Muxammasi navoning bozgo' y va xonalarining o' zaro kelishuvida tayanch pardalarning xususiyatlariga alohida e' tibor berish talab etiladi. Odatda ijrochi o' zi uchun qo' lay bo' lgan barmoq qoidalariga va chap qo' l harakati pardalar tozaligiga e' tibor berish lozim bo' ladi. Chap qo' l barmoqlar aniqligini va pardani bosganda cholg' u torini his etib chalish ustida ishlash va bu kamchiliklarni joriy nazorat kunigacha bartaraf etish lozim bo' ladi.

Asarlarning ijro sur' ati, dinamikasi shuninigdek tovushlar sifati, barmoqlar tizimi va qurilmalar ustida ishlashga ahamiyatliroq bo' lishi kerak bo' ladi. Ijrodagi ba' zi kamchiliklarni bartaraf etishga imkon bor.

Har bir talaba imtihonga kirishidan oldin tinglovchilar oldida ijro etish bilan birga sahna madaniyati ustida ham ishlanadi. O' tgan darslarda o' rganilgan asarlar tarixiga, ijodkorlariga oid mavzular bo' yicha savol javoblarga tayyor turishligi uqtiriladi.

Savollar:

1. Ijro madaniyati ustida ishlashda nimalarga e' tibor berish kerak?
2. Asarni badiiy xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Xalq kuylari shashmaqom asarlaridan qanday farq qiladi?
4. Xalq ashulalarinig cholg' ulardagi ijrosida so' z bo' g' inlarining qanday ahamiyati bor?

Mustaqil mashg' ulot uchun topshiriqlar:

5. Oraliq nazorati davrida o' zlashtirilgan asarlar yozuvlarini tinglab boring.
6. Oraliq nazorati mavzulari bo' yicha yozma ish tayyorlang.
7. "Eshvoy" ashulasi she' r matnini yoddan takrorlab boring.
8. Nazariy ma' lumotlar haqida ma' lumotlar to' plang.

Tayanch iboralar: *nazariy ma' lumotlar, xalq kuylari, ashula, ijro madaniyati, xalq kuylari tarixi.*

O' tilgan mavzular bo' yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro' yxati.

1. Азизбоев С. Ғижжак наволари. – Т.: Фан. 1999.
2. Ўзбек халқ мусиқаси. VI жилд. Юнус Ражабий нотага олган.
3. Ўзбек халқ мусиқаси. VII жилд. Юнус Ражабий нотага олган. И. Акбаров таҳрири остида. – Т.: Бадий адабиёт нашр., 1958.
4. Ўзбек халқ мусиқаси. (Хоразм мақомлари). IX жилд. Матниёз Юсупов тўплаган ва нотага олган. И. Акбаров таҳрири остида. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1962.
5. Ўзбек тилининг кирил ва латин алифболаридаги луғати. – Т.: "Шарқ" 2003.
6. Н. Қодиров. Ғижжак ижрочилик мактаби. – Т.: 2011.
7. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. Бадий адабиёт нашриёти. Т.: 1963.


53-57-DARSLAR: Shashmaqomning turkum asarlari.
 “Saraxbori Navo”.

1. “Navo” maqomi – “Shashmaqom” tarkibidagi uchinchi maqom sanalib, uning tarixi ham o‘tmish zamonlarga borib taqalishi ma’lum. “Saraxbor” so‘zi “sar” – forscha “bosh”, “boshlanish”, “axbor” arabcha “xabar” so‘zning ko‘pligidir. “Navo” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, “yoqimli kuy”, “ohang”, “Navo chekuvchi”, “kuylovchi” degan ma’nolarni anglatadi.¹¹

Tanlangan dasturning eng yirik asarlaridan “Saraxbori navo” ni mashg‘ulotlarini boshlashdan oldin ushbu asarning musiqiy tuzilmasi, jummalarning birin – ketin kelishuvlari va umumiy qurilmasi borasida mavjud manbaalarga tayangan holda biroz to‘xtalib o‘tiladi. Asar tuzilmasi bilan tanishishdan avval talaba nota matnini taqdim qilishi lozim bo‘ladi. Chunki, ijro jarayonida ustoz tomonidan berilgan ko‘rsatmalar va tavsiyalar talaba tomonidan belgilab borilishi lozim bo‘ladi. O‘z o‘rnida, ustozlar tomonidan ijro etilgan (aynan Yu.Rajabiy rahbarligidagi Respublika maqomchilar ansambli ijrosidagi audio yozuvini) eshitish tavsiya etiladi.


2. Endi bevosita Saraxbori navoni birgalikda amaliy mashg‘ulotini boshlaymiz. O‘rganish bir muncha oson kechishi uchun ohang jummalarini alohida-alohida ajratib o‘rganamiz. Demak, asarning umumiy tuzilmasi bilan tanishib chiqamiz. Asar *daromad*, *miyonxad*, *dunasr*, *namudi oraz*, *namudi bayot* va *frovarddan* iborat. Shuningdek, asar jummalarini o‘zaro bog‘lovchi *hang* va *zamzama* hanglar ham keladi.

Navo maqomining tayanch pardalari:



Saraxborlarning takt, ritm o‘lchovi 2/4 (ikki chorak) bo‘lib, doyra usuli ikki xil ijro etiladi. (bu usul “zarbul qadim” deb ham ataladi)

¹¹ И.Ражабов. “Мақомлар”. “Санъат” нашриёти. Т., 2006.



Cholg‘u sozingizni *sol* – ochiq torini *fa* – ochiq torga sozlab olsangiz, *re* toridagi ikkinchi barmoqdagi *fa* – notasi bilan jo‘rlanib o‘zgacha joziba baxsh etadi. Asar *daromad* bilan taktning yarmidan boshlanib, 32,5 taktdan iborat. Talaba nigohi nota matnida bo‘lib, ushbu jumlar (*daromad*, *miyonxad* va *dunasr*) ustoz ijrosida chalib ko‘rsatiladi. *Daromad*ning birinchi taktidagi *re* ochiq toridan *fa* pardasiga sirg‘alish orqali tushiladi. Shu holat asarning hamma takrorlanishlarida shunday davom etadi.

3. Nota mantni orqali *daromad*ning jumlasini ijro eting. Navo maqomi tayanch pardalar tozaligini saqlagan holda notalar tepasiga qo‘yilgan qisqa - uzun *to‘lqinlatish* bezagi vositalaridan va kamondan unumli foydalaning. Doyra usuliga alohida e‘tibor qarating. Chunki, usulga tesakari tushib qolinsa, ohang jummalari o‘xshovsiz bo‘lib qoladi. Shu holat bo‘lmasligi uchun usulni yodlab olish zarur.



Ushbu darslar jarayonida navbatdagi jummalarni ham shu tartibda o'rganiladi. Miyonhad qisqa bo'lishiga qaramasdan o'zidan oldingi va keyingi jummalarni bir-biriga bog'lab beradi.



